

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI**  
**HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI**  
**PhD.03/27.02.2020.F.72.08. RAQAMLI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**  

---

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI**

**BOLTAYEV ABDURAHIM AMONOVICH**

**MUHYIDDIN IBN ARABIYNING IJTIMOIIY-FALSAFIY QARASHLARI**

**09.00.03 – Falsafa tarixi**

**Falsafa fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi**  
**AVTOREFERATI**

**Buxoro – 2023**

**Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора наук (DSc)**

**Contents of dissertation abstract of the doctor of sciences (DSc)**

**Boltayev Abdurahim Amonovich**

Muhyiddin ibn Arabiyning ijtimoiy-falsafiy qarashlari.....3

**Болтаев Абдурахим Амонович**

Социально-философские взгляды Мухйиддина ибн Араби.....33

**Boltayev Abdurakhim Amonovich**

Social and philosophical views of Muhyiddin Ibn Arabi .....65

**E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati**

Список опубликованных работ

List of works published .....71

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI**  
**HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI**  
**PhD.03/27.02.2020.F.72.08. RAQAMLI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**  

---

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI**

**BOLTAYEV ABDURAHIM AMONOVICH**

**MUHYIDDIN IBN ARABIYNING IJTIMOIIY-FALSAFIY QARASHLARI**

**09.00.03 – Falsafa tarixi**

**Falsafa fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi**  
**AVTOREFERATI**

**Buxoro – 2023**

**Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi B2022.2.DSc/Fal125 raqam bilan ro‘yxatga olingan.**

Dissertatsiya Buxoro davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida ([www.buxdu.uz](http://www.buxdu.uz)) va “Ziyonet” Axborot ta’lim portalida ([www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy maslahatchi:**

**Salomova Hakima Yusupovna**  
falsafa fanlari doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:**

**Huseynova Abera Amonovna**  
falsafa fanlari doktori, professor

**Fayzixodjaeva Dilbar Irgashevna**  
falsafa fanlari doktori, dotsent

**Siddiqov Ilyosjon Bahromovich**  
falsafa fanlari doktori, dotsent

**Yetakchi tashkilot:**

**Samarqand davlat chet tillar instituti**

Dissertatsiya himoyasi Buxoro davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/27.02.2020.F.72.08 raqamli bir martalik ilmiy kengashning 2023 yil “23” Noyabr soat 14<sup>00</sup> dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 200114, Buxoro shahri, M.Iqbol ko‘chasi, 11-uy. Tel.: (65) 221-29-14; faks: (65) 221-57-27, e-mail: [buxdu\\_rektor@buxdu.uz](mailto:buxdu_rektor@buxdu.uz))

Dissertatsiya bilan Buxoro davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (384 raqami bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 200114, Buxoro shahri, M.Iqbol ko‘chasi, 11-uy. Tel.: (65) 221-25-87.)

Dissertatsiya avtoreferati 2023 yil “10” Noyabr kuni tarqatildi.  
(2023 yil “10” Noyabr dagi 23 raqamli reyestr bayonnomasi.)



**Navro‘zova G.N.**

Ilmiy darajalar beruvchi

ilmiy kengash raisi,

falsafa fanlari doktori, professor

**Sharipov A.Z.**

Ilmiy darajalar beruvchi

ilmiy kengash kotibi,

falsafa fanlari doktori, professor

**Sharipova O.T.**

Ilmiy darajalar beruvchi

ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi,

falsafa fanlari doktori, dotsent

## KIRISH (fan doktori (DSc) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahonda sotsiumni barcha sohalarini qamrab olgan globalizatsiya ijobiy jihatlar bilan bir qatorda tinchlikni saqlash, inson ma'naviy muhiti sofligini ta'minlash va axloqiy illatlarni bartaraf etish kabi muammolarni keltirib chiqarmoqda. Bu esa har bir xalq va mamlakatdan o'zining tarixiy merosidan unumli foydalangan holda yangicha ta'lim-tarbiya usullari va vositalarini yaratishni, yosh navqiron avlod qalbida milliy g'urur va iftixorni shakllantirish, o'tmishga munosib avlod bo'lish, ertangi kunga ishonch va e'tiqod bilan yashashni turmush tarziga aylantirishni talab etmoqda. Shu nuqtai nazardan "Shayxul akbar" nomi bilan ulug'langan Ibn Arabiy ilmiy merosida markaziy o'rin egallagan falsafiy, orifiy, tasavvufiy muammolarni tadqiq etish, uning Uchinchi Renessans poydevorini barpo etishda jamiyatda ilm-ma'rifatni yuksaltirish, yosh avlodning ma'naviy-irfoniy olamini boyitish orqali mafkuraviy immunitetni mustahkamlash, barkamol etib tarbiyalashga oid ijtimoiy-falsafiy xususiyatlarini ochib berish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Jahon ilm-fani va ilmiy-tadqiqot markazlarida tasavvuf, uning insoniyat hayotida tutgan o'rni, yosh avlod tarbiyasidagi ahamiyati hamda Sharq xalqlari tafakkurining shakllanishida muhim rol o'ynagan buyuk mutafakkirlar va mutasavviflarning ma'naviy merosiga oid tadqiqotlar olib borilmoqda. Ayniqsa, tasavvuf ta'limoti va falsafasi haqida to'g'ri tasavvur hosil qilishga imkon beradigan, hurfikrlilik, insonparvarlik g'oyalari rivojlantirishda mustahkam asos vazifasini bajargan, olam va odam munosabatlari, komil inson va uni tarbiyalashga oid ta'limotlar, qarash va g'oyalarga ehtiyoj oshib bormoqda. Shuning uchun Muhyiddin ibn Arabiy ilmiy merosidagi "vahdatul vujud" ta'limotining o'zlikni anglash, mavjudlikka oid mohiyatini hamda irfoniy bilish tamoyillarini, "komil inson" konsepsiyasidagi nafs ko'rinishlari va ularining inson xulqini shakllantirishdagi ahamiyatini tajqiq etish zarurati tobora ortib bormoqda.

Mamlakatimizning hozirgi taraqqiyot bosqichida yoshlarimizni chuqur bilim, tariximiz va madaniyatimizga hurmat ruhida tarbiyalashga, ularda vatanparvarlik, fidoyilik singari yuksak axloqiy fazilatlarni shakllantirish hamda ajdodlarimizning insoniyat taraqqiyotiga qo'shgan munosib hissasini angelaydigan va shunga muvofiq bo'lgan kadrlarni etishtirishga doir islohotlar olib borilmoqda. "... bugungi sharoitda taraqqiyotning muhim omili sifatida ta'limning roli ortib bormoqda. Hozirgi paytda jamiyat va sivilizatsiyalar, avvalo, ijtimoiy qadriyatlar va ta'lim tizimlari bilan raqobatlashmoqda. Shu nuqtai nazardan, buyuk ajdodlarimiz bo'lgan islom olamining mutafakkirlari asarlarini, ularning jahon sivilizatsiyasi rivojiga qo'shgan bebaho hissasini chuqur o'rganish, teran anglash va keng ommalashtirishga alohida e'tibor qaratish lozim"<sup>1</sup>. Ayniqsa, islom falsafasida tafakkuriy-aqliy yo'nalishni va tasavvufni nazariy jihatdan asoslagan ilohiyotchi Ibn Arabiy qarashlarining iroda erkinligi, o'zlikni anglash, ilm va amal birligi hamda haqiqatni izlash haqidagi g'oyalarining hozirgi davrdagi ahamiyatini ochib berish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

<sup>1</sup> Мирзиёев. Ш. Янги Ўзбекистон стратегияси. – Тошкент: "O'zbekiston", 2021. – Б.357-358.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi PF-158-son “‘O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risida”, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”, 2020-yil 6-noyabrdagi PF-6108-son “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta‘lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” farmonlari, 2017-yil 24-maydagi PQ-2995-son “Qadimiy yozma manbalarni saqlash, tadqiq va targ‘ib qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2018-yil 23-iyundagi PQ-3080-son “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida O‘zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2018-yil 14-avgustdagi PQ-3907-son “Yoshlarni ma‘naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta‘lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2021-yil 26-martdagi PQ-5040-son “Ma‘naviy-ma‘rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2022-yil 10-fevraldagi PQ-126-son “Qadimiy yozma manbalarni saqlash va tadqiq etish tizimini takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” qarorlari, shuningdek, sohaga oid boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi.** Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” nomli ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

### **Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi<sup>2</sup>.**

Ibn Arabiy ilmiy merosi, falsafiy-tasavvufiy maktabi dunyoning qator ilmiy tadqiqot markazlari, ilmiy ta‘lim muassasalari, jumladan, Mashhad universiteti, Qum universiteti, Iranian Institute of Philosophy, Shahid Behishtiy universiteti, al-Mustafo universiteti, Kirmon universiteti (Eron), Stony Brook University, Yale University, University of California, Berkeley, Michigan State University (AQSh), Utrecht University (Niderlandiya), Cembridge, Oxford, London University (Buyuk Britaniya), Mohammed V University (Marokash), IREMAM Aix-en-Provence, Institute of Central Asia, Sorbone University (Fransiya), University of Seville (Ispaniya), Istanbul University (Turkiya), Rossiya Fanlar akademiyasi instituti,

---

<sup>2</sup> Dissertatsiya mavzusiga doir xorijiy ilmiy-tadqiqotlar sharhi <https://www.mums.ac.ir/en/>; <https://www.topuniversities.com/universities/university-qom>; <https://www.irip.ac.ir/en/home> <https://en.sbu.ac.ir/>; <https://mou.ir/>; <https://kmu.ac.ir/en/>; <https://www.stonybrook.edu/>; <https://www.yale.edu/>; <https://www.berkeley.edu/>; <https://msu.edu/>; <https://iphras.ru/>; <https://www.uu.nl/en/home-en>; <http://www.um5.ac.ma/um5/>; <https://www.iremam.cnrs.fr/en/about>; <https://ics-seville.org/university-of-seville/>; <https://www.istanbul.edu.tr/> universiteti kabi elektron resurslar manbalari asosida tayyorlandi. Bu haqda qarang: Alexander D. Knysh. Ibn ‘Arabi in the Later Islamic Tradition: The Making of a Polemical Image in Medieval Islam. Albany, SUNY Press, 1999. - 449 p.: A. В. Смирнов, Великий шейх суфизма (опыт парадигмального анализа философии Ибн Араби). - Москва, Наука (издательская фирма «Восточная литература»), 1993; الغراب م.م. الشيخ الأكبر محي الدين العربي. حياته ترجمته من كلامه. دمشق: دار المرتضى 1983. 381-ص. الغراب م.م. الفقه عند الشيخ الأكبر محي الدين العربي. دمشق: مطبعة نضر 1993. 468-ص. الغراب م.م. الحب و المحبة الإلهية من كلام الشيخ الأكبر محي الدين ابن العربي. دمشق: مطبعة نضر 2007. 186-ص. الغراب م.م. الخيال عالم البرزخ و المثال. دمشق: مطبعة نضر 1984. 256-ص. الغراب م.م. شرح كلمات الصوفية. دمشق: مطبعة نضر. 1981. 544-ص.

Rossiya FA qoshidagi Sharq qo'lyozmalari instituti (Rossiya), shuningdek, Tojikiston fanlar akademiyasi Falsafa va sharqshunoslik ilmiy-tadqiqot institutlari hamda Tojikiston davlat milliy universiteti (Tojikiston), O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi, Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, Buxoro davlat universiteti (O'zbekiston) kabi ko'plab ilmiy markazlarida tadqiq etilmoqda.

Jahonda Ibn Arabiy falsafiy-tasavvufiy ta'limoti va ilmiy merosini o'rganish quyidagi natijalarda namoyon bo'lmoqda: A.D.Knish Ibn Arabiy ijodini keng tadqiq qildi. U o'zining ko'p sonli maqolalaridan tashqari Ibn Arabiy qarashlari, g'oya va ta'limotining mohiyatini ochib berishga qaratilgan bir qancha asarlarni yozdi (Michigan universiteti AQSh); A.Smirnov tomonidan olib borilgan tadqiqotlar ham keng ko'lamli bunda asosan, Ibn Arabiy merosini tarjima va tadqiq qilishga e'tibor qaratildi. Mutasavvifning "Fususul hikam", "al-Futuhutul makkiyya" kabi asarlarini tarjima qilgan holda ularda ilgari surilgan falsafiy-tasavvufiy g'oyalarni tadqiq qilindi (Rossiya); Arab olimlaridan Mahmud G'urob Ibn Arabiy asarlarida keng iste'molda bo'lgan, shuningdek, tasavvuf istilohotida ko'p qo'llaniladigan masalalar va istilohlarni alohida tadqiq qildi. Bu ayni paytda mutasavvif asarlarini osonroq tushunishga, undagi majoziy ma'nolarni anglashda o'zining salmoqli o'rniga ega bo'ldi. Mahmud G'urob mutasavvifni keng jamoatchilikka tanishtirishning yangi bosqichini boshlab berdi.

Jahonda tasavvufning o'rganishga oid quyidagi ustuvor yo'nalishlarda ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda: falsafaning metodologik muammolari va metodik arsenalini yaratish; tasavvuf ta'limoti bo'yicha olib borilgan zamonaviy tadqiqotlar tahlili; tariqatlarda nafs tarbiyasi; shaxs kamolotida tasavvufning roli; tasavvufiy qarashlarda diniy-irfoniy, dunyoni bilish, qalb pokligi masalalarini ochib berish; tasavvufiy g'oyalardan zamonaviy yoshlarning axloqiy tarbiyasida foydalanishning ahamiyatini ochib berish.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** Muhyiddin Ibn Arabiy falsafiy-tasavvufiy ta'limoti va uning o'ziga xos jihatlariga G'arb va Sharqning ko'plab olimlari diqqat va e'tiborlarini qaratganlar. Ibn Arabiy o'z zamondoshlari va o'rta asr mutakallim, mutasavviflari, faqihlar va din ulamolarining ham diqqat nazarida bo'lgan va ular bu ulug' mutasavvifning ijodiga o'z munosabatlarini bildirib kelishgan. Uning tanqidchilaridan Ibn Taymiya (1263-1328 yy), Abdulqodir as-Sanadiy (1936-1997 yy), Burhonuddin al-Baqoiy (1406-1480 yy) Ibn Arabiy ta'limotiga raddiya tarzida maxsus asarlar yozganlar. Shuningdek, Shamsuddin az-Zahabiyning (1274-1348 yy) "Siyaru a'lomin nubalo" (Ulug' insonlarning hayot tarzi haqida ma'lumotlar), Ibn Xatib ash-Shirbiniyning (vaf. 1569 y) "Mug'ni al-muhtoj" (Ehtiyojlarni qondiruvchi) asarlarida al-Izz ibn Abdussalom (1181-1262 yy), Hofiz ibn Hajar al-Asqaloniy (1372-1449 yy), Ibn Xaldun, (1332-1406 yy) Shamsuddin Muhammad ibn Yusuf al-Jazariy (1350-1429 yy), Abu Hayyon al-Andalusiy (1256-1344 yy), Qozi Badruddin ibn Jamoa (1241-1333 yy), Taqiyyuddin as-Subkiy (1284-1355 yy) fikrlari va xulosalari keltirilgan<sup>3</sup>.

ابن تيمية. الرد علي المنطقيين. بيروت: دار الفكر 1985. ; برهان الدين البقاعي. تنبيه الغبي بتكفير عمر بن الفريد و ابن العربي. القاهرة: دار الهلال 1991. عبد القادر السندي. كتاب ابن عربي الصوفي. المدينة: نشر و توزيع دار البخاري. برهان الدين البقاعي. تنبيه الغبي بتكفير عمر بن الفريد و ابن العربي. القاهرة: دار الهلال 1991

Jahon olimlari J.S.Trimingem, A.Knish, A.Tor, F.Rouzentel, R.Landou, R.Nikolson, G.Korbin, P.Kotes, M.Xodkevich, R.J.Netler, A.Affifi, A.N.Diyab, S.Nasr tadqiqotlarida bu muammo turli nuqtai nazardan o'rganilgan<sup>4</sup>.

Mustaqil davlatlar hamdo'stligi mamlakatlari olimlaridan A.Alizoda, D.Vorobyev va Ibn Arabiy merosini o'rganishda juda ko'plab tadqiqotlarni amalga oshirgan A.Smirnov, L.Tuxvatullin, M.Xefiyan kabi olimlarning tadqiqotlari<sup>5</sup>, Ibn Arabiy ilmiy-ma'naviy merosiga bag'ishlab juda ko'plab asarlar yozgan arab olimi M.G'urob<sup>6</sup>, tasavvufshunos Muhammad Ismoil Mablag'<sup>7</sup> ilmiy izlanishlari qimmatli ahamiyatga ega.

O'zbekistonda Ibn Arabiy ta'limotining vujudga kelish shart-sharoitlari va o'zidan keyingi tasavvufiy tafakkur rivojiga ta'siri to'g'risida qiyosiy tahlillar va umumiy xulosalar N.Komilov, G.Navro'zova, J.Xolmo'minov kabi olimlar tomonidan berilgan. Shuningdek, B.To'rayev Ibn Arabiyning borliq konsepsiyasidan borliq mohiyatini ochishda barcha fanlar nuqtai nazaridan yondashib, falsafiy tahlil qilgan. X.Yu.Salomova esa Ibn Arabiyning inson va komil inson, me'yor kategoriyasiga oid qarashlarini alohida tadqiq qilganligi diqqatga sazovor. E.Zoyirov naqshbandiya tariqatining nazariyotchisi Maxdumi A'zamning falsafiy qarashlarini tadqiq etib, mutasavvifning "Risolai vujudiya" asarini yozishida Ibn Arabiy ta'limotining o'rnini alohida e'tirof etgan<sup>8</sup>. J.Xolmo'minov Ibn Arabiy va Naqshbandiya ta'limotini o'rganish bo'yicha ilmiy izlanishlarida Ibn Arabiy "Vahdatul vujud" falsafasining Naqshbandiya ta'limotiga ta'sirining falsafiy, tarixiy, ilmiy jihatlarini asoslab bergan. Xoja Muhammad

<sup>4</sup> Тримингем Дж.С. Суфийские ордены в исламе / Пер.с англ. А.А.Ставиской. - Москва: "София", ИД "Гелиос", 2002.; А.Книш. Учение Ибн Араби в поздней мусульманской тардии // Суфизм в контексте мусульманской культуры. - М., 1989.; Исламские мистики. / Пер. с нем. В.Г.Ноткинон. - СПб.: Евразия, 2003.; Ф.Роуцентал Торжество знания. (концепция знания в средневековом исламе). - Москва,1978.; Landau R. The philosophy of Ibn Arabi. - New York. 1959.; R.A. Nicolson The Idea of Personality in Sufism. - Cambridge, 1923.; H.Corbin Creative Imagination in the Sufism of Ibn 'Arab. - Paris, 1958.; Coates P. Ibn 'Arabi and Modern Thought: The History of Taking Metaphysics Seriously. - Oxford: Anqa. 2002.; Chodkiewicz M. An Ocean Without Shore: Ibn 'Arabi, the Book, and the Law. - Albany: State University of New York Press, 1993.; Nettler R.J. Sufi Metaphysics and Quranic Prophets: Ibn 'Arabi's Thought and Method in the Fusus al-Hikam. - Oxford: Islamic Texts Society. 2003.; Affifi A. The Mystical Philosophy of Muhid-din Ibnul Arabi. - Cambridge, 1939.; Diyab A.N. The Dimensions of Man in Ibn Arabi's Philosophy. - Cambridge, 1981.; Nasr S.H. Three Muslim Sages. Avicenna - Suhrawardi - Ibn Arabi. - Cambridge, 1967.

<sup>5</sup> Ализада А.А. Ибн Араби // Исламский энциклопедический словарь. - М.: Ансар, 2007.; Время - вечность в учении ал-Халладжа и Ибн Араби. Историко-философский ежегодник -2000. - М., 2001.; Смирнов А.В. Три решения проблемы трансцендентности и имманентности божественной сущности в философии Ибн Араби // Рационалистическая традиция и современность: Близкий и Средний Восток. -М.: Наука, 1990.; Тухватуллина Л.И. Антропология Ибн Араби // Мусульманский мир, 2000.; Хефийан М.Т. Суфийская философия Ибн Араби "Единство гносеологии, этики и онтологии". / Автореф. ... канд.филос.наук. - Москва, 2004.

<sup>6</sup> الغراب م.م. الشيخ الأكبر محي الدين العربي. حياته ترجمته من كلامه. دمشق: دار المرئضي 1983. الفقه عند الشيخ الأكبر محي الدين ابن العربي. دمشق: مطبعة نضر 2007.

<sup>7</sup> محمد اسماعيل مبلغ. جامي و ابن عربي. بمناسبة احتفال پنجد و پنجاهمین سال ولادت مولینا نورالدین عبد الرحمن جامي هروي. کابل 1343.

<sup>8</sup> Комилов Н. Тафаккур карвонлари. - Т.: Маънавият, 1999.; Наврўзова Г.Н. Накшбандия тушунчалар генезиси. - Бухоро: "Бухоро", 2010. - Б.143; Холмўминов, Ж. М. (2021). Мовароуннахр фалсафий-ирфоний мактаблари ва Ибн ал-Арабий таълимоти. // Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences VOLUME 1 | ISSUE 10. - P. 81-84.; Тураев Б.О. Борлиқ (фалсафий таҳлил) / - Самарқанд - Тошкент: Имом Бухорий халқаро илмий-тадқиқот маркази, 2022. - 234 б.; Саломова Х.Ю. Меъёрнинг фалсафий моҳияти ва амалий аҳамияти. - Бухоро: "Дурдона", 2018.

Саломова Х.Ю. Жалолиддин Румий: инсон ифалсафаси тўғрисида. Бухоро.: "Садриддин Салим Бухорий", Дурдона. 2022, - 144 б.; Зоиров Э.Махдumi Аъзамнинг фалсафий ва ижтимоий-сиёсий қарашлари. - Т.: "Turon zamin ziyo", 2015. - 41 б.

Porso Buxoriy, Xoja Ahror Valiy va Mavlono Abdurahmon Jomiy tomonidan Ibn Arabiyning “Vahdatul vujud falsafasi”dagi irfoniy g‘oyalarning Naqshbandiyada “falsafiy ta’limot darajasiga ko‘tarilganligi” isbotlangan. Islom falsafiy-irfoniy tafakkuri tarixida biror kitob “Fususul hikam”chalik mashhur bo‘lgan emas. Turli yo‘nalish, mazhab va firqalarga tegishli bo‘lgan keyingi davrlardagi olimlar unga gohida qisqa, gohida mufassal ilmiy sharhlar bitganlar. Qolaversa, irfon va tasavvuf ta’limoti va falsafasiga oid kitob yozgan bir qator olimlar o‘z ilmiy salohiyatlarini namoyish etish uchun ham “Vahdatul vujud” ta’limoti atrofida o‘z fikr-mulohaza va munosabatlarini bildirishni zarur deb hisoblaganlar. Shuningdek, tadqiqotda belgilangan muammoning ayrim xususiyatlari, jumladan keyingi davr mutafakkirlari qarashlariga ta’siri A.Husenova, bilishda mantiqiy mulohazalarning o‘rnini tahlil etishga doir masalalar bilan aloqadorligi D.Fayzixodjayeva, teologik va gnoseologik ta’limotlar sintezini amalga oshirishda I.Siddiqov tadqiqotlarida o‘rganilgan<sup>9</sup>.

Dissertatsiyani yozish jarayonida nomlari ko‘rsatilgan o‘zbek hamda jahon tasavvufshunoslari, falsafa sohasi mutaxassisleri va tadqiqotchilarining ilmiy izlanishlari e’tiborga olindi. Tadqiqotda mazkur yo‘nalishda bajarilgan ishlardan farqli ravishda, Ibn Arabiyning tasavvuf tarixida tutgan o‘rnini aniqlash, ma’naviy merosining ijtimoiy-falsafiy xususiyatlariga, falsafaning umumnazariy masalalari bilan bir qatorda amaliy muammolariga doir qarashlarini tadqiq etishga alohida e’tibor qaratilgan.

**Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi.** Dissertatsiya tadqiqoti Buxoro davlat universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq II band “Yangi O‘zbekistonda ma’rifatparvar davlat barpo etishning ijtimoiy-falsafiy va ma’naviy-axloqiy asoslarini takomillashtirish muammolari” (2022-2026 yy.) tadqiqot yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** Muhyiddin Ibn Arabiyning ijtimoiy-falsafiy qarashlarining o‘ziga xos xususiyatlarini ochib berishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

Ibn Arabiyning tasavvuf tarixida tutgan o‘rni, hayoti va ilmiy merosining o‘ziga xos jihatlarini aniqlash hamda bu muammoga doir amalga oshirilgan tadqiqotlarni sharhlash;

Ibn Arabiy ta’limotidagi borliq muammosi, vahdat ul-vujud konsepsiyasi, makon va zamon tushunchalarini falsafiy tahlil etish;

Ibn Arabiy gnoseologik qarashlarining tasavvufiy talqinini va diniy-tasavvufiy, irfoniy ta’limotiga xos xususiyatlarni ochib berish;

Ibn Arabiy ta’limotida axloqiy masalalarda iroda erkinligi va so‘fiylik ibodati, inson va uning kamoloti masalalarini tadqiq etish;

---

<sup>9</sup> Холмўминов Ж. Қиёсий тасаввуфшунослик (Монография). – Тошкент: “Yosh avlod matbaa”, 2021. - 266 б.; Хусейнова А.А. Фуқаролик жамияти ва аёллар.—Бухоро: БухДУ, 2009. – 217 б.; Файзиходжаева Д.И. Аргументлаш ва коммуникация. Монография. –Тошкент: Shafolat nur fayz, 2021. – 204 б.; Сиддиқов И.Б. Ўрта аср ислом Шарқда гносеологик ва теологик қарашларнинг ўзаро синтезлашуви: тарихий-фалсафий таҳлил. – Тошкент: “Ўзбекистон файласуфлари миллий жамияти”, 2022. – 276 б.;

mutasavvif ilgari surgan ezgulik va insonparvarlik g'oyalari, axloqiy qarashlarining yoshlarni barkamol inson etib tarbiyalashdagi ahamiyatini ochib berish va tegishli tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

**Tadqiqotning ob'yekti** sifatida Ibn Arabiyning “ar-Risalatul vujudiyya”, “Risalatul vaqt val on”, “Risola fi asroriz zotil ilahiyya” va “Nusxatul Haq”, “Fususul hikam”, “al-Futuhotul makkiyya” kabi asarlari tanlangan.

**Tadqiqotning predmeti** Ibn Arabiy ijtimoiy-falsafiy qarashlarining tasavvuf tarixida tutgan o'rnini hamda borliqqa, inson borlig'iga, tabiatga, vaqt, zamon va makonga oid qarashlarining ijtimoiy-falsafiy ahamiyatini aniqlashdan iborat.

**Tadqiqotning usullari.** Dissertatsiyada analiz va sintez, kompleks yondashuv, qiyosiy tahlil, tizimli-funksional yondashuv, kontent analiz, retrospektiv tahlil, dialektik, sinergetik, germenevtik kabi ilmiy bilish usullaridan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

Ibn Arabiy ilmiy merosida markaziy o'rin egallagan falsafiy, orifiy, tasavvufiy muammolar (borliq, bilish, Allohning sifatlari, axloq, inson, tabiat, makon va zamon) mutasavvifning “ash-Shayxul akbar” (Ulug' shayx) deb ulug'lanishiga asos bo'lgani hamda bu qarashlarning Uchinchi Renessans poydevorini barpo etishda jamiyatda ilm-ma'rifatni yuksaltirish, yosh avlodning ma'naviy-irfoniy olamni boyitish orqali mafkuraviy immunitetini mustahkamlash, barkamol etib tarbiyalashdagi muhim o'rni asoslangan;

Ibn Arabiyning “ar-Risalatul vujudiyya” asaridagi “vahdatul vujud” konsepsiyasining borliq va yo'qlik, o'zlikni anglash, mavjudlikka oid mohiyati hamda vaqt kategoriyasining miqdor bilan bog'liqligi (vaqtning mavjudlikdagi miqdorda namoyon bo'lishi), olam harakatiga dialektik aloqadorligi, harakatning muttasil yangilanib turishi, doiraviy va abadiy harakat, o'tmish va kelajak kabi falsafiy xususiyatlari inson prizmasi kontekstida ochib berilgan;

mutasavvif ta'limotida ilgari surilgan iroda erkinligiga doir inson taqdiri, Yaratuvchining irodasiga bog'liqligi, e'tiqodni tanlash, Allohning rahmati ustunligi kabi g'oyalarining tolerantlik muhitini shakllantirishdagi roli, so'fiylik axloqining “ibodatul ma'na” (ma'naviy ibodat), shariat qonun-qoidalari, shaxsiy tajriba va malaka, maqom (harakatdan harakatga o'tish, tark qilishdan tark qilishga o'tish, harakatdan tark qilishga o'tish, tark qilishdan harakatga o'tish) tamoyillari hamda irfoniy bilishning gorizont (ma'naviy qadriyat, mafkura oralig'i) va vertikal (ma'naviy kamolot, bir sifatdan ikkinchi sifatga o'tuvchi ma'naviy etuklik) tamoyillarining nafsni tozalash va tarbiyalashda hamda qalbni poklashdagi o'rni dalillangan;

Ibn Arabiyning “al-Futuhotul makkiyya” risolasidagi zamon kategoriyasining (vaqtning miqdor bilan bog'liqligi, mavjudlikdagi miqdorda namoyon bo'lishi, olam harakatiga dialektik aloqadorligi, doiraviy va abadiy harakat) xususiyatlari so'fiylikda “faqd” (vaqtni yo'qotmoq) va “vajd” (vaqtni ichida bo'lish, uni egallash) hollarining manbaviy asosi ekanligi hamda zamonning nisbiyligi, yo'qlikdan paydo bo'ladigan, hayolan cho'ziladigan, shu ondan iborat belgilari va vaqtning qiymati ochib berilgan;

Muhyiddin ibn Arabiyning “komil inson” (“aqli avval”, “nafsi avval” “aqli kul”) konsepsiyasidagi nafsning “iymonli nafs” (bo‘ysunuvchan, tarbiyalangan, istaklari jilovlangan), “malomat qiluvchi nafs” (tabiiy istaklardan qutilmagan, o‘zini-o‘zi tergap turadigan), “yomonliklarga buyuruvchi nafs” (jilovlanmagan, yovuzlikdan qaytmaydigan) ko‘rinishlari hamda shahvoniy nafs, g‘azabiy nafs va notiqa nafs quvvatlarining inson xulqini shakllantirishdagi ahamiyati hamda nafs kasalliklari “so‘z kasalligi” (fitna, g‘iybat), “fe‘l kasalligi” (maqtanish, manfaatparastlik) va “hol kasalligi” (maddohlik, mansabparastlik)ni engish zarurati asoslab berilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

Ibn Arabiy ta‘limoti va qarashlarining yoshlarda islohotlarga ishonch va daxldorlik hissini shakllantirishda, ijtimoiy faol bo‘lish, kasb-hunar egallash, ma‘naviy yuksalish va falsafiy tafakkur va mushohadasining kengayishidagi muhim roli asoslab berilgan;

Ibn Arabiy o‘rtaga tashlagan ilg‘or tasavvufiy-falsafiy g‘oyalar Markaziy Osiyo va islom mamlakatlari ijtimoiy-axloqiy hayotida hamda islom falsafasida yangi tafakkuriy-aqliy yo‘nalishni vujudga keltirganligi hamda so‘fiylar qarashlarida olam, odam va ular o‘rtasidagi munosabatlar, komil inson haqidagi qarashlarning shakllanishiga turtki bo‘lgani isbotlangan;

Ibn Arabiy ijtimoiy-falsafiy qarashlarida ilgari surilgan ilm o‘rganish, o‘zlikni anglash, ilm va amal birligi hamda haqiqatni izlash haqidagi g‘oyalardan ajdodlarimiz ma‘naviy merosi, ularning ezgu g‘oya va qarashlarini keng xalq ommasiga etkazishga qaratilgan ma‘naviy-ma‘rifiy tadbirlarni tashkil etishga qaratilgan taklif-tavsiyalar ishlab chiqilgan;

mutasavvif talimotidagi so‘fiylik tizimida ma‘rifat va haqiqat jamiyatdagi axloq me‘yorlarini o‘rganishda asos vazifasini bajarishi, diniy va dunyoviy ilmlarni uyg‘unlikda o‘rganishda uslub sifatida, yosh avlodni yuksak ma‘naviyatli komil insonlar qilib tarbiyalash hamda jamiyatda adolat muammolarini xolisona yoritishda nazariy metodologik manba sifatidagi ahamiyati ochib berilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** tadqiqot jarayonida qo‘llanilgan nazariy qarashlar, tadqiqot usullari va yondashuvlar rasmiy manbalar hamda birlamchi qo‘lyozma manbalarning tarjimasi asosida olinganligi, nashr etilgan ilmiy maqolalar respublika va xalqaro konferensiyalarda sinovdan o‘tkazilganligi, tadqiqot ishi natijalari bo‘yicha berilgan xulosalar asosida takliflar ishlab chiqilgan bo‘lib, tavsiyalar amaliyotda joriy etilgani, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlangani bilan asoslanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati ilgari surilgan konseptual g‘oyalardan tasavvufiy tariqatlarni tadqiq etishda, unung komil inson tarbiyasidagi ahamiyatini tahlil etishga qaratilgan ilmiy izlanishlarda, o‘sib kelayotgan yosh avlod ongida ma‘naviy immunitetni mustahkamlash maqsadida buyuk ajdodlarimizning boy ilmiy-ma‘naviy merosini chuqur o‘rganishda, islom sivilizatsiyasi va madaniyatiga beqiyos hissa qo‘shgan allomalarimizning yaratgan asarlarining ilmiy-izohli tarjima va qiyosiy matnlarini jahon jamoatchiligiga etkazish va xalqaro miqyosda

keng targ'ib qilishga qaratilgan chora-tadbirlarni tashkil etishda foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati Muhyiddin ibn Arabiyning ijtimoiy-falsafiy merosining tasavvufiy-falsafiy tahliliga oid qarashlaridan "Ma'naviyat va ma'rifat" markazlarining aholi o'rtasida ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar tashkil etishda, ta'lim muassasalarida ma'naviy-ma'rifiy hamda tarbiyaviy ishlar samaradorligini oshirishda, Markaziy Osiyo mintaqasi doirasida qadimiy yozma manbalarni saqlash va tadqiq etish sohasida qo'shni davlatlar bilan hamkorlik aloqalarini yo'lga qo'yishda, shuningdek, "Falsafa", "Ma'naviyatshunoslik", "Dinshunoslik", "Kasbiy ma'naviyat" kabi fanlarni o'qitishda, ommaviy axborot vositalarining ko'rsatuvlar va media materiallarini tayyorlashda, diniy-ma'rifiy loyihalarni amalga oshirishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Muhyiddin ibn Arabiy ijtimoiy-falsafiy qarashlarining ahamiyatini ochib berish bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

Ibn Arabiy ilmiy merosida markaziy o'rin egallagan falsafiy, orifiy, tasavvufiy muammolar (borliq, bilish, Allohning sifatleri, axloq, inson, tabiat, makon va zamon) mutasavvifning "ash-Shayxul akbar" (Ulug' shayx) deb ulug'lanishiga asos bo'lgani hamda bu qarashlarning Uchinchi Renessans poydevorini barpo etishda jamiyatda ilm-ma'rifatni yuksaltirish, yosh avlodning ma'naviy-irfoniy olamni boyitish orqali mafkuraviy immunitetini mustahkamlash, barkamol etib tarbiyalashdagi o'rniga doir ilmiy xulosalar va yangiliklardan O'zbekiston islom sivilizatsiyasi markazining 2021-2022-yillar mutafakkirlar hayotiga oid targ'ibot materiallarini tayyorlashda, jumladan "Jahon ilm-fani taraqqiyoti va sivilizatsiyasiga hissa qo'shgan ajdodlar ilmiy merosini tadqiq qilish hamda yangi yuksalish davridagi yutuqlarni targ'ib qilish bo'yicha "Yo'l xaritasi"ning II. Ma'naviy-ma'rifiy targ'ibot tadbirlari bandida belgilangan vazialar ijrosini ta'minlashda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Islom sivilizatsiyasi markazining 2023 yil 13 fevraldagi 08-17/140-son ma'lumotnomasi). Natijada, jamiyatda adolat muammolarini xolisona yoritishda, diniy va dunyoviy ilmlarni uyg'unlikda o'rganish, yoshlarni yuksak ma'naviyatli komil insonlar qilib tarbiyalashda ilmiy manba bo'lib xizmat qilgan;

Ibn Arabiyning "Risoi vujudiya" asaridagi "vahdatul vujud" konsepsiyasining borliq va yo'qlik, o'zlikni anglash, mavjudlikka oid mohiyati hamda vaqt kategoriyasining miqdor bilan bog'liqligi (vaqtning mavjudlikdagi miqdorda namoyon bo'lishi), olam harakatiga dialektik aloqadorligi, harakatning muttasil yangilanib turishi, doiraviy va abadiy harakat, o'tmish va kelajak kabi falsafiy xususiyatlariga oid yangiliklar va takliflar O'zbekiston musulmonlar idorasi tomonidan buyurtma asosida diniy ta'lim muassasalari uchun tayyorlangan "Tasavvuf", "Falsafa asoslari" o'quv qo'llanmalarining mazmuniga singdirilgan hamda Mir Arab oliy madrasasida diniy soha xodimlari uchun tashkil etilgan malaka oshirish kurslari o'quv dasturlarini ishlab chiqishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Din ishlari bo'yicha qo'mitaning 2023 yil 22 fevraldagi 02-03/1074-son ma'lumotnomasi). Natijada, chop etilgan nashrlarning mazmunan boyishiga va malaka oshirish kursi tinglovchilarining dunyoqarashini

kengaytirishga, diniy ta'lim muassasalari va ilmiy-tadqiqot markazlari uchun uslubiy tavsiyalar ishlab chiqishda metodologik asos sifatida xizmat qilgan;

mutasavvif ta'limotida ilgari surilgan iroda erkinligiga doir inson taqdiri, Yaratuvchining irodasiga bog'liqligi, e'tiqodni tanlash, Allohning rahmati ustunligi kabi g'oyalarning tolerantlik muhitini shakllantirishdagi roli, so'fiylik axloqining "ibodatul ma'na" (ma'naviy ibodat), shariat qonun-qoidalari, shaxsiy tajriba va malaka, maqom (harakatdan harakatga o'tish, tark qilishdan tark qilishga o'tish, harakatdan tark qilishga o'tish, tark qilishdan harakatga o'tish) tamoyillari hamda irfoniy bilishning gorizont (ma'naviy qadriyat, mafkura oralig'i) va vertikal (ma'naviy kamolot, bir sifatdan ikkinchi sifatga o'tuvchi ma'naviy etuklik) tamoyillarining nafsni tozalash va tarbiyalashda hamda qalbni poklashdagi o'rniga oid taklif va tavsiyalardan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 17-18 oktyabr kunlari Surxondaryo viloyatiga tashrifi davomida berilgan topshiriqlarning 152-bandining ijrosi yuzasidan "Har bir viloyatga mos tarzda buyuk alloma ajdodlarimiz ilmiy merosiga bag'ishlangan kichik hajmdagi, xalqchil risola va qo'llanmalar tayyorlash" va 156-157-bandlari "Jaholatga qarshi ma'rifat" g'oyasi asosida "surxondaryo tajribasi"ni ishlab chiqish ijrosi yuzasidan "Buyuk Termiziy" rukni ostida "So'fi Oллоhyor", "Xoja Samandar Termiziy", "Adib Sobir Termiziy" risolalari mazmuniga singdirilgan (Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazining 2023 yil 9 martdagi 01-07/35-son ma'lumotnomasi). Natijada, allomalar merosini chuqur tadqiq etish, Sharqda yaratilgan tasavvufiy manbalarni o'rganishda, yoshlarni milliy-diniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash, buyuk allomalarning jahon tamadduniga qo'shgan hissasini milliy va xalqaro miqyosda ommalashtirishga xizmat qilgan;

Ibn Arabiyning "al-Futuhutul makkiyya" risolasidagi zamon kategoriyasining (vaqtning miqdor bilan bog'liqligi, mavjudlikdagi miqdorda namoyon bo'lishi, olam harakatiga dialektik aloqadorligi, doiraviy va abadiy harakat) xususiyatlari so'fiylikda "faqd" (vaqtni yo'qotmoq) va "vajd" (vaqtni ichida bo'lish, uni egallash) hollarining manbaviy asosi ekanligi hamda zamonning nisbiyligi, yo'qlikdan paydo bo'ladigan, xayolan cho'ziladigan, shu ondan iborat belgilari va vaqtning qiymatiga doir ilmiy xulosalar va umumlashmalardan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazining ilmiy-madaniy jamoatchilikni keng xabardor qilish hamda kataloglar, albomlar, ilmiy-amaliy materiallar bazasini takomillashtirishda, jumladan, markaz tomonidan VIII-XVI asrlarda yashagan Sharq allomallari va mutafakkirlari haqidagi tarixiy ma'lumotlarni o'z ichiga olgan "O'rta asr Sharq allomallari" ensiklopediyasini tayyorlashda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazining 2023 yil 26 yanvardagi 02/39-son ma'lumotnomasi). Natijada, Ibn Arabiyning vaqt to'grisida ilgari surgan g'oyalari ensiklopediyani ilmiy manbalar bilan boyitishga xizmat qilgan;

Muhyiddin ibn Arabiyning "komil inson" ("aqli avval", "nafs avval" "aqli kul") konsepsiyasidagi nafsning "iymonli nafs" (bo'ysunuvchan, tarbiyalangan, istaklari jilovlangan), "malomat qiluvchi nafs" (tabiiy istaklardan qutilmagan, o'zini-o'zi tergap turadigan), "yomonliklarga buyuruvchi nafs" (jilovlanmagan,

yovuzlikdan qaytmaydigan) ko‘rinishlari hamda shahvoniy nafs, g‘azabiy nafs va notiqa nafs quvvatlarining inson xulqini shakllantirishdagi ahamiyati hamda nafs kasalliklari “so‘z kasalligi” (fitna, g‘iybat), “fe‘l kasalligi” (maqтанish, manfaatparastlik) va “hol kasalligi” (maddohlik, mansabparastlik)ni engish zaruratiga oid taklif va tavsiyalardan Buxoro viloyat teleradiokompaniyasining “Assalom O‘zbekiston”, “Til – millat ko‘zgusi” ko‘rsatuvlari ssenariylarini tayyorlashda foydalanilgan (Buxoro viloyat teleradiokompaniyasining 2023 yil 1 fevraldagi 01-04-26-son ma‘lumotnomasi). Natijada, teletomoshabinlarning ushbu masalalar yuzasidan kerakli ma‘lumotlarni olish imkoniyatini berib, ko‘rsatuvlarning ilmiyligi va ommabopligini oshirishga xizmat qilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Mazkur tadqiqot natijalari 5 ta xalqaro va 6 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi.** Tadqiqot mavzusi bo‘yicha jami 28 ta ilmiy ish, jumladan, 1 ta monografiya, O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya qilingan ilmiy nashrlarda 14 ta ilmiy maqola (12 ta respublika va 2 ta xorijiy jurnallarda) chop etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya kirish, to‘rt bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat. Dissertatsiya umumiy hajmi 229 betdan iborat.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Tadqiqotning “**Kirish**” qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati, respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi, mavzu bo‘yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi, muammoning o‘rganilganlik darajasi, dissertatsiya bajarilgan ta‘lim muassasasining ilmiy-tadqiqot rejalari bilan bog‘liqligi tavsiflangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, ob‘ekti, predmeti tadqiqotda qo‘llanilgan usullar yoritilgan. Shuningdek, tadqiqotning ilmiy yangiligi, amaliy natijalari, natijalarining ishonchliligi, ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan hamda tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilinishi, aprobatsiyasi, e‘lon qilinganligi, tuzilishi va hajmi bo‘yicha ma‘lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning “**Ibn Arabiyning tasavvuf tarixida tutgan o‘rni**” deb nomlangan birinchi bobida Ibn Arabiy dunyoqarashining shakllanishiga ta‘sir ko‘rsatgan shart-sharoit va omillar tahlil etilgan bo‘lib, mutasavvif merosiga o‘z davri hamda keyingi davrlarda bildirilgan munosabatlar, olib borilgan tadqiqotlar tadqiq qilingan. Ibn Arabiy ijodi insoniyatning o‘ziga xos ma‘naviy yuksalish konsepsiyasi sifatida tarixda qolganligi asoslab berilgan.

Ibn Taymiyaning (1263-1328 yy) “Jome‘ur rasoyil” (Maktublar to‘plami) asarida: “al-Futuhutul makkiyya” muallifi Ibn Arabiy, Ibn Sab‘iyn, Ibn Faridlar borliqni yagona (ya‘ni, Alloh borliqdan tashqarida emas) va “yaratilgan” (“maxluq” مخلوق) ni “Yaratuvchi” (“Xoliq” خالق) bilan bir deb ta‘kidlaydilar va adashishlarining o‘zagi ham shunda. Ularning fikrlari faylasuf, so‘fiy va

mutakallimlar, ba’zida qarmat va botiniylarning qarashlaridan olingandir. Bular shunday toifaki, na so’fiyona, na faylasufona bo’lgan fikrlarining tasdig’i uchun bir mazhabning eshigidan ikkinchi bir mazhabning eshigiga chopadilar”<sup>10</sup>, - deb qayd etilgan.

Tadqiqotda Sa’duddin at-Taftazoniy (1322-1390 yy), Burhonuddin al-Baqo’iy (1406-1480 yy) ham Ibn Arabiy va uning izdoshlarini tanqid qilganligi keltiriladi. “Ibn Arabiy, - deb yozadi al-Baqo’iy, - odamlarni u dunyoda do’zax azobi bo’lmaydi, agar bo’lganda ham u azob emas, maxsus rohat turida bo’ladi, deb ishontiradi”<sup>11</sup>. Al-Baqo’iy fikricha, bunday ta’limot insonlarni to’g’ri yo’ldan chiqarib, Qur’on oyatlarining haddan tashqari buzib tafsir va sharhlanishiga olib keladi. Hanbaliylar nazdida bu diniy emas, tasavvufiy buzg’unchi g’oyalardir.

Dissertant fikriga ko’ra, Ibn Arabiy ta’limoti muayyan rad etishlarga uchragan bo’lib, bu an’anaviy islom shariati tarafdorlari tomonidan amalga oshirilgan. Tadqiqotda buning ikki sababi mavjudligi qayd etilgan:

1. An’anaviy islom shariati insonlar uchun oddiy va tushunarli bo’lib, uning farz, sunnat, mustahab va boshqa amallarini murakkab ruhiy talqin qilinishi qabul qilishni qiyinlashtirgan.

2. Ko’pchilik uchun tushunarsiz bo’lgan bu ta’limotning noto’g’ri qabul qilinishi natijasida islomiy aqidalarning buzilishi mumkinligidan xavfsiragan shariat peshvolari uni rad etishgan.

XX asr boshlarida Ibn Arabiyning tasavvufiy g’oyalariga bo’lgan qiziqish ancha kuchayadi. Ingliz sharqshunosi va tasavvuf tadqiqotchisi Reynold Allen Nikolson (1868-1945 yy) Shayxu-l-akbar ijodiga baho berib: “Ibn Arabiy Qur’on oyatlari va hadislarini shunday usulda sharhlaydiki, uning bu uslubi bizga ma’lum bo’lgan Yahudiy Filon (er.av. 25 y.) va Origen Aleksandriyskiyga (185-253 yy) o’xshaydi. Mutasavvifning kitoblarida bayon qilib bergan nazariyalarini tushunish qiyin. Yana ham qiyinrog’i uni sharhlash va izohlashdir. Negaki, Ibn Arabiy ishlatgan istilohlari majoz tilidagi maxsus tildir. Ulardan har qanday ma’no chiqarish mumkin. Shu sababli uning terminologiyasiga jiddiy yondoshilmasa, matndagi ma’noni tushunib bo’lmaydi. Uning asarlari tom ma’noda tushunish qiyin bo’lgan falsafiy-tasavvufiy uslubga misol bo’ladi”<sup>12</sup>.

Tadqiqotchi fikriga ko’ra, Ibn Arabiy musulmon tasavvuf olamini yangi an’analar bilan boyitdi. Bu ta’limotining o’ziga xosligi shundaki, so’fiylikdagi irfon (“Allohni tanishlik” العرفان) ni eng oliy maqomga ko’tardi. “Ibn Arabiy, - deb yozadi nemis sharqshunos olimasi Anna-Mari Shimmel, - o’z faoliyati bilan so’fiylik maktablarining an’analarini angladi. Ibn Arabiy o’z davridagi eng yorqin so’fiylardandir. Mutasavvif tufayli “irfon” istilohi so’fiylik xarakterini aniqlovchi eng yaxshi istilohga aylandi. Ibn Arabiy butun dunyoga mashhur bo’lgan ta’limotni yaratdiki, tashqi oddiyligi bilan barcha so’fiylik tafakkuri ustidan to’liq g’alabaga erishdi. Ibn Arabiyning o’zi esa “vahdatu-l-vujud” (yagona vujud) va

<sup>10</sup> ابن تيمية. ابطال وحدة الوجود. الكويت: جمعية احياء التراث الإسلامي، 1992. 167-ص.

<sup>11</sup> برهان الدين البقاعي. تنبيه الغبي بتكفير عمر بن الفريد و ابن العربي. القاهرة: دار الهلال: 19-ص.

<sup>12</sup> ابو الأعلى عفيفي. تحقيق كتاب فصوص الحكم. دمشق: دار الكتب العربية. 12-ص.

“al-insonu-l-komil” (komil inson) ta’limotlarini yaratuvchisi sifatida nom qozondi”<sup>13</sup>.

Shved dinshunos olimi Andre Tor Ibn Arabiy ijodini yuqori baholab, mutasavvifni ulug‘ insonlardan deb yozadi: “Ibn Arabiy, - deydi u, - dinlar tarixiga qiziquvchilar uchun maxsus qiziqish uyg‘otdi. Mutasavvifning asarlarida qadim ellinistik diniy-g‘oyaviy an‘analari izlari saqlangan. Biroq e’tiqod nuqtai nazaridan qaralsa, bu e’tiqod samarasiz cho‘lga yoki yo‘llari bo‘lmagan landshaftga o‘xshaydi”<sup>14</sup>. Ingliz olimi Trimingem esa: “Tasavvufiy g‘oyalar rivojini Ibn Arabiy g‘oyalarisiz tasavvur qilish qiyin”<sup>15</sup> – deb mutasavvif ta’limotiga yuqori baho bergan.

Yurtimiz olimlaridan G.Navro‘zova Ibn Arabiy va Xoja Ahror ta’limotidagi umumiylik va xususiylikni quyidagicha tadqiq qiladi: “Xoja Ahror g‘oyalarida naqadar Ibn Arabiy ta’limotining ta’siri bor? Tadqiqotlar natijasi shuni ko‘rsatadiki, Xoja Ahrordan saqlangan 206 ta rashhadan 6 tasida Ibn Arabiy haqida ma’lumot keltirilgan. Ikki mutasavvif ham jonli va jonsiz tabiat, ya’ni borliqning bu ko‘rinishlari o‘zaro aloqada ekanligini uqtiradi. Inson o‘z amallari va axloqi bilan jonsiz tabiatga qanday ta’sir etsa, o‘sha ta’sir qaytib, insonning amallariga o‘tadi”<sup>16</sup>.

Tadqiqotchi E.Zoyirov naqshbandiya tariqatining nazariyotchisi Maxdumi A’zamning falsafiy qarashlarini tadqiq etib, mutasavvifning “Risolai vujudiya” asarini yozishida Ibn Arabiy ta’limotining o‘rnini alohida e’tirof etgan: “Ibn Arabiy ta’limotida “Haq” (Alloh) istilohi turli ta’riflar, tavsiflar va talqinlar bilan bayon etiladi. U gohida “Haq”ni “Xalq” (yaratilgan mavjudotlar) bilan ayni bir narsa deb tushuntirsa, ba’zida Haqning xalq darajasiga tanazzul etishini nazarda tutadi. Shu diqqatga sazovorki, Maxdumi A’zam bilan Ibn Arabiyning Haq bilan xalq, ya’ni Alloh bilan uning tajalliysi bo‘lgan borliqdagi mavjudotlar, shu jumladan inson o‘rtasidagi munosabatlar masalasidagi qarashlarida hamohanglik mavjuddir”<sup>17</sup>. Tadqiqotchi xulosalariga ko‘ra, o‘tgan davrlar mobaynida Ibn Arabiy, uning ta’limoti, asarlaridagi g‘oya va fikrlariga turlicha yondashuvlar vujudga kelgan.

Dissertatsiyada Ibn Arabiyning hayoti va ilmiy merosi tahlil qilinib, falsafa va tasavvuf olamida katta shuhrat qozongan “ash-Shayxul akbar” (“Ulug‘ shayx”), “Kibrit ul-ahmar” (“Donishmandlik toshi”), “Muhyiddin” (Dinni tiriltiruvchi), “Raisul mukoshifiyn” (“Kashfiyotchilarning raisi”), “al-Bahrul zoxir” (“Tuganmas zaxiraga ega ummon”), “Bahrul haqiq” (“Haqiqatlar dengizi”), “Imomul muhaqqiqiyn” (“Haqiqat izlovchilarning imomi”) va “Sultonul orifiyn” (“Oriflarning sultoni”) kabi nomlar bilan ulug‘lanib kelayotgan Muhyiddin Abu Abdulloh Muhammad ibn Ali ibn Muhammad ibn al-Arabiy al-Hotamiy at-Toiy al-Andalusiy dindor oilada tug‘ilib o‘sganligi, o‘n yoshida Qur‘onning etti xil

<sup>13</sup> شمیل انا ماری. نموزج مشرق للاستشراق. القاهرة: دار الرشاد. 1998. ص.88.

<sup>14</sup> Тор, Андре. Исламские мистики. - СПб.: Евразия, 2003. - С. 15.

<sup>15</sup> Тримингем Ж. С. Суфийские ордены в исламе / Пер. А. Ж. Ставиский - М.: София И Д “Гелиос”, 2002. - С.175.

<sup>16</sup> Наврўзова Г., Рахматова Х. Нақшбандия тушунчалари генезиси. - Бухоро: 2010. – Б.14.

<sup>17</sup> Зоиров Э. Махдуми Аъзамнинг фалсафий ва ижтимоий-сиёсий қарашлари. – Тошкент: “Turon zamin ziyo”, 2015. – Б.27.

qiroati va ma'nolarini o'zlashtirganligi, fiqh, hadis ilmini zamonning peshqadam olimlaridan o'rganganligi haqidagi ma'lumotlar keltirilgan. Mutasavvif o'n to'qqiz yoshida tasavvuf ilmini mukammal egallagan. Ibn Arabiy sermahsul ijodi bilan islom olamida bahslarga sabab bo'lib, hozirgi kungacha faylasuf, tarixchi va adabiyotshunos olimlar tomonidan o'rganib kelinmoqda.

Tadqiqotda Ibn Arabiy tasavvufiy ilmlarni Abul Abbos al-Uraybiy, Solih al-Aduvviy, Abu Abdulloh ash-Sharafiyy, Fotima bintu Abil Musanna, Shams Ummu-l-fuqaro kabi tasavvuf namoyandalari, ularning asarlaridan foydalangan hamda "Akbariya" tariqatiga asos solganligi dalillangan.

Mutasavvif tasavvuf ta'limotining nazariy-axloqiy masalalarida ijtimoiy hayotning dolzarb muammolaridan bahs yurituvchi to'rt yuzdan ortiq risolalar yozgan. Ushbu tadqiqotda o'ttizga yaqin mutasavvif asarlaridan hamda Eron kutubxonasi xazinasida saqlanayotgan o'nga yaqin qo'lyozmalardan foydalanilgan. Mutasavvif risolalarida falsafiy, orifiy, tasavvufiy muammolar va ularning echimi yoritilgan. Ibn Arabiy risolalarining tasnifi shuni ko'rsatadiki, uning qarashlarida borliq, bilish, Allohning sifatleri, axloq, inson, tabiat, makon va zamon kabi masalalar markaziy o'rinni egallaydi.

Dissertant Ibn Arabiyga oid ma'naviy merosni quyidagicha tasniflagan: (qarang: 1-rasm.)

### Ibn Arabiy ilmiy merosi

- Borliq masalalariga oid
- Alloh sifatlariga oid
- Ilmiy bilishga oid
- Axloq ilmiga oid
- Inson borlig'iga oid
- Tabiat masalalari tahliliga oid
- Makon, zamon, vaqt, ong masalalariga oid

#### **1-rasm. Ibn Arabiy ma'naviy merosi tasnifi**

Ibn Arabiy hayot yo'lini o'rganish tasavvuf falsafasini tushunib etishda muhim o'rin egallaydi. Shu nuqtai nazardan uning tarjimai holi va mutasavvifning so'fiylik ma'rifatining rivoji to'g'risidagi ma'lumotlarga alohida e'tibor qaratish lozim. Mutasavvif falsafiy masalalarni tasavvuf tushunchalari orqali tahlil etgan. Ibn Arabiy shariat orqali tariqat malakasini o'zlashtirib, o'zligini anglagan holda haqiqatni yagona tizimga solgan. Ibn Arabiyning boy ma'naviy merosi va shaxsiy ibrati jamiyatda yosh avlodni o'tmish ma'naviy merosidan bahramand qilishda muhim ahamiyatga egadir. Uning risolalari islom qoidalarini to'g'ri anglashda, yurtimizda pok axloqiy qadriyatlarining qaror topishida shubhasiz, muhim o'rin egallaydi.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi “**Ibn Arabiy ta’limotida borliq muammosining falsafiy tahlili**” deb nomlangan. Unda Ibn Arabiy ta’limotidagi falsafaning bosh masalalaridan biri hisoblangan borliq, unda inson talqini, inson va borliqning o‘zaro bog‘liqligi va yaxlitligi masalasi, borliq to‘g‘risidagi falsafiy fikrlar taraqqiyoti, borliqni bilish va “vahdatul vujud” (“borliqning yagonaligi”) nazariyasi tahlil etilgan.

Ibn Arabiy Allohni barcha mavjudotning, mo‘min bandaning qalbi deb biladi va jahonda haqiqat-u voqelikdan tashqari narsani ko‘rmaydi, orif har bir narsani “unda ko‘radi, negaki u butun narsalarni qamrab oladigan zarf (ichiga narsalar qo‘yuvchi idish)dir”<sup>18</sup>, - deb ta’kidlaydi.

Tadqiqotchi Ibn Arabiy “vahdatul-vujud” nazariyasini o‘zining xos uslubida izohlashini qayd etgan. Uning borliqqa oid maxsus asarlarining tasnifi ko‘rsatadiki, u borliqqa umumiy ta’rif berish bilan birga uning ko‘rinishlari bo‘lgan tabiat, inson, jamiyat va ma’naviy borliqni ham tahlil etgan. Ibn Arabiyning borliqning umumiy masalalarini yoritgan, bu kategoriyani yaxlit, tizimli o‘rgangan asarlaridan biri “Risolai vujudiya” (“Vujud haqida risola”)<sup>19</sup>dir. Asarning qo‘lyozma nusxasi asosida tadqiqotchi risolaning 17 varaqdan iboratligini ta’kidlaydi.

وخطابنا مع من له عزيمة و همة في طلب العرفان و في طلب معرفة النفس  
Mutasavvif risolani *ya’ni*, “Bizning so‘zlarimiz *ya’ni*, “Bizning so‘zlarimiz irfon talabida azm va himmatga ega kishilar va o‘zlikni anglash talabi borlar, qalbiga Alloh ta’olo vasliga etish ishtiyoqi hamda talabining suratini solganlar uchundir”<sup>20</sup>, - degan irfoniy fikr bilan boshlaydi. Bundan kelib chiqadiki, inson avvalo, o‘zini anglasa yoki bilsa shunda mohiyatni anglaydi.

Ibn Arabiy risola va mohiyatni anglagan insonlarni quyidagicha tushuntiradi:

فالجواب هذه المقامات مع من لا يري سوي الله شيئاً و من يري شيئاً سوي الله فليس لنا معه جواب و لا سؤال فإنه لا يري غير ما يري

*Mazmuni:* Javob aytki, “Bu suhbatimiz Allohdan boshqa narsani ko‘rmayotganlar bilandir. Allohdan boshqani ko‘rayotgalarga bizning savolimiz ham javobimiz ham yo‘q. Chunki undaylar ko‘ringannigina ko‘rarlar”<sup>21</sup>.

Demak, mutasavvif risolani hol ilmiga o‘tganlar, mohiyatni anglaganlar uchun yozgan. Biroq asar falsafa va tasavvuf ilmiga qiziquvchilar uchun muhim manba bo‘lib xizmat qiladi.

Ibn Arabiy borliqda Allohdan boshqa narsalar mavjud emasligini har qanday borliq undan ekanligini, shuning bilan birga uning o‘zi hech bir narsada bo‘lmasligini, uni faqat uning o‘zi anglashligini aytadi:

لا هو في شيء فيه لا داخلا و لا خارجا ينبغي أن تعرفه بهذه الصفة لا بالعلم و لا بالعقل و لا بالفهم و لا بالوهم و بالحس و لا بالعين الظاهرة و بالعين الباطنة و لا بالإدراك لا يراه إلا هو و لا يدركه إلا هو و لا يعلمه إلا هو و يعرف نفسه بنفسه لا يراه أحد غيره و لا يدركه أحد غيره

*Mazmuni:* “U biron narsada emas va biron narsa yo‘qki, Unda bo‘lmasa. U ichkarida ham emas, tashqarida ham emas. Uni shunday sifat bilan tanish kerak. Uni na ilm na aql bilan, na fahm na vahm bilan, na zohir his bilan, na botin ko‘z

<sup>18</sup> Жузжоний, Абдулҳақим Шаръий. Тасаввуф ва инсон. -Тошкент: Адолат. 2001. –Б.20.

<sup>19</sup> Ibn Arabiy. Risolai vujudiya. Qo‘lyozma. Muallifning shaxsiy kutubxonasi.

<sup>20</sup> الرسالة الوجودية. محي الدين محمد بن علي بن محمد ابن عربي. بيروت: دار الكتب العلمية. 2004. ص-43

<sup>21</sup> الرسالة الوجودية. محي الدين محمد بن علي بن محمد ابن عربي. بيروت: دار الكتب العلمية. 2004. ص-44

bilan va na idrok bilan anglab bo‘lur. Uni faqat Uning o‘zigina ko‘rar va Uni faqat Uning o‘zigina idrok qilari. U o‘zini O‘zi orqali bilar va U o‘zini O‘zi orqali anglar. U o‘zini O‘zi bilangina ko‘rar, o‘zga birov ko‘rolmas”<sup>22</sup>.

Mutasavvif borliq va yo‘qlik masalasini tasavvufiy-irfoniy nuqtai nazaridan tahlil etgan. Ibn Arabiy payg‘ambar (s.a.v.)ning “Parvardigorim, menga barcha narsalarni ular aslida qanday bo‘lsalar shundayin ko‘rsat”, - degan hadisini keltirib, botiniy ma‘nosini sharhlab o‘tadi:

كما قال – صلى الله عليه وسلم –: "اللهم أرني الأشياء كما هي": عبّر بالأشياء عما سوى الله – سبحانه وتعالى –، أي عرّفني ما سواك لأعلم وأعرف الأشياء أي شيء هي: أهي أنت أم غيرك، أهي قديم باقي أم حادث فان؟ فأراه الله – تعالى – ما سواه نفسه بلا وجود ما سواه، فرأى الأشياء "كما هي"؛ أعني الأشياء ذات الله – تعالى – بلا كيف ولا أين

*Mazmuni:* “Menga O‘zingdan o‘zga nima bor anglat, men narsalarning Senmi yoki Sendan boshqami, ular qadimiy boqiy mi yoki yaratilmish foniymi bilay. Alloh ta’olo Muhammad (s.a.v)ga Uning o‘zidan o‘zga narsa, va o‘zga vujud yo‘qligini ko‘rsatdi. Payg‘ambar (s.a.v) esa narsalarni aslida qanday bo‘lsa, shunday ko‘rdilar, ya’ni, narsalar bu Alloh ta’oloning o‘zidir. Buni “Qanday?”, “Qayerda?” bilan tushuntirib bo‘lmas”<sup>23</sup>.

Dissertant yuqoridagi fikrlar to‘g‘risida mushohada qilarkan, xo‘sh, aslida bu nazariyaning mohiyati nimadan iborat? – degan savolni tahlil etadi. Islom aqidasi ga ko‘ra Alloh ta’olo borliqni yo‘qlik olamidan paydo qildi, ya’ni, adamdan vujudga keltirdi. Demak, biz bilgan, ko‘rgan, ushlagan, o‘ylagan hamma narsalar vujudda mavjuddirlar, ya’ni, jannat-u do‘zax, arvoh-u farishta, jin-u shayton, dunyo olami, ruhlar olami, malakut va lohut olami vujud bilan bordirlar. Adam, ya’ni, yo‘qlik olami qandayligini Haqdan o‘zga zot bilishga qodir emas. Ibn Arabiy mana shu ikkilik, adam va vujud bir-biridan ayrilgan emas deb tushuntiradi. Agar bularni alohida deyilsa, “vahdat”, ya’ni, Allohning zoti birlikdan iboratligiga zid bo‘ladi. Diniy istiloh bilan aytilsa, “shirk” bo‘ladi. Shirk esa Qur’onda eng ulug‘ gunohlar sirasiga kiradi va shariatdagi “tavhid”ga qarshi bo‘lib qoladi. Islomga kirishning birinchi sharti bo‘lgan “La ilaha illalloh” (“Allohdan o‘zga iloh yo‘qdir”) iymon kalimasini rad qilgan bo‘ladi. Allohdan o‘zga zot yo‘q ekan Ibn Arabiy ta’limotiga ko‘ra “Har qanday kasrat vahdatdan iborat”, ya’ni har qanday ko‘plik asosida birlik yotadi, - deya xulosalar chiqaradi.

Ibn Arabiy fanoni quyidagicha tahlil etadi: “Kim o‘zini Allohdan boshqa deb gumon qilsa, bilsinki, u Allohdan o‘zga emasdir. Biroq, sen buni anglay olmaysan. Sen Uni ko‘rib turganligingni bilmaysan. Qachonki, senga bu sir kashf bo‘lsagina sen Allohdan tashqarida emasligingni bilasan. Va bilasanki, sen o‘zingni maqsad qilgan ekansan. Sen fanoga ham muhtoj emas ekansan. Sen ahyonu onlarsiz ham bo‘lgansan va bo‘laverar ekansan. Avval aytib o‘tganimizdek, Uning barcha sifatlari sening sifatlaring ekanini, shak-shubhasiz, Uning zohiri sening zohiring, Uning botini sening botining, Uning avvali sening avvaling, Uning oxiri sening oxiring ekanligini ko‘rasan. Va yana ko‘rasanki, ko‘pu kamsiz sen Unga

الرسالة الوجودية. محي الدين محمد بن علي بن محمد ابن عربي. بيروت: دار الكتب العلمية. 2004. ص-35<sup>22</sup>

الرسالة الوجودية. محي الدين محمد بن علي بن محمد ابن عربي. بيروت: دار الكتب العلمية. 2004. ص-37<sup>23</sup>

aylanmasdan, U ham senga aylanmasdan turib, Uning sifatlari ham Uning zoti ham sensan”<sup>24</sup>.

Ibn Arabiy “Qultu”, ya’ni “Men dedimki”, deb shu xulosalariga mos bo‘lgan o‘z she’ridan iqtibos keltiradi<sup>25</sup>:

قلت:

|                          |                            |
|--------------------------|----------------------------|
| و ما أن تكون و لا قد كنت | ظننت ظنونا بأنك أنت        |
| وثاني اثنين دع ما ظننت   | فإن أنت أنت فإنك رب        |
| فما بان عنك و لا عنه بنت | فلا فرق بين وجودكما        |
| حسننت وإن زال جهلك كنت   | فإن قلت جهلا بأنك غيره     |
| و بعدك قرب بهذا حسننت    | فوصلك هجرو هجرك وصل        |
| ليلى تفوق ما عنه وصفت    | دع العقل وافهم بنور انكشاف |
| لئلا تهون فالشرك هنت     | ولا تشرك مع الله شيئا      |

*Mazmuni:*

O‘zingcha o‘ylaysan, o‘zingni Sen deb,

O‘zingni Sen deya o‘ylashing xato.

Sen – Sen emas, Sen bu Parvardigordir,

“Ikkilik” haqida o‘ylama, hatto.

Ikkingizning vujdingizda farq yo‘q,

Sen Undan, U sendan emassiz o‘zga.

Agar johil ersang deysan: “Boshqaman”,

Nodonliging ketmas, yursang shu so‘zga.

Visoling hijrondir, hijroning visol,

Uzoqliging yaqin aslida bilsang.

Aqlni qo‘y, kashfni nur ila tushun,

Tunni vasfi bilan munavvar qilsang.

Allohga shirk qilma biron narsani,

Shirk ko‘p og‘ir gunoh, bilsayding ani<sup>26</sup>.

Dissertant fikricha, Ibn Arabiy so‘fiylarning ash’ariylar bilan mohiyatan bir-biriga juda yaqin qarashlari sirasiga “Tajdidul a’roz” (“Aksidensiyaning o‘zgarib turishi”)ni ham kiritadi<sup>27</sup>. U ash’ariylarning bu boradagi fikrlari bilan o‘zining so‘fiylik tizimidagi fikrlarini solishtirib, ular o‘rtasidagi yaqinlikni ko‘rsatib beradi: “Ash’ariylar butun borliqni yagona substansiya (Javhar) deydilar. Biz mohiyat yagona deymiz. Ular yana deydilar: “U araz (aksidensiya)da farqlanadi”. Biz deymizki: “U shakl va hajmda ko‘payadi”. Deydilar: “Nimaiki yo‘q bo‘lsa, o‘zgaga bor, yoki o‘zgaga aksidensiya (araz)da bor, yoki o‘zgaga xossa bor”. Qanday xohlasang aytaver”<sup>28</sup>.

Ibn Arabiy vujud va hijob masalasini quyidagicha tahlil etadi: “Bundan oldin Uning hijobi Uning vahdoniyati va fardoniya ekanligini aytib o‘tgandik. Shuning uchun ham haqiqatga etayotganda etuvchining “Anal Haq” (“Men Xudoman”)

<sup>24</sup> محي الدين ابن عربي. الرسالة الوجودية. بيروت: دار الكتب العلمية. 2004. 37-ص.

<sup>25</sup> محي الدين ابن عربي. الرسالة الوجودية. بيروت: دار الكتب العلمية. 2004. 42-ص.

<sup>26</sup> Tarjimalar muallifi – dissertant Abdurahim Boltayev.

<sup>27</sup> ابن عربي. فصوص الحكم. بيروت: دار الكتاب العربي، 1946. 268-ص.

<sup>28</sup> ابن عربي. فصوص الحكم. بيروت: دار الكتاب العربي، 1946. 354-ص.

deyishi, ayrimi esa “Subhoniyy” (“Subhoniyyman”) deyishi joyizdir. Haq vasliga etayotgan vosil Allohning sifatlari o‘zining sifatlari ekanini, Allohning zoti o‘zining zoti ekanligini, o‘zining sifotiyu zoti Allohnikidan mutlaqo na ichkari va na tashqari ekanligini ko‘radi. U o‘zini Allohdan na foniy va Allohda na boqiylikni anglaydi. Va yana u o‘z vujudini topmaganligini, chunki vujudi foniy bo‘lmaganini ko‘radi va uning o‘zi Uning o‘zi ekanligini, uning vujudi Uning vujudi bo‘lganini biladi”<sup>29</sup>.

Dissertatsiyada mutasavvifning makon va zamon tushunchalari irfoniy tahlil qilinib, yoshlarning bo‘sh vaqtini mazmunli o‘tkazish, vaqtdan unumli foydalanish me‘yorlari falsafiy nuqtai nazardan ochib berilgan. Ibn Arabiy borliqning atributlari bo‘lgan makon va zamon masalasiga oid “Risolatul vaqt val on” (“Vaqt va on to‘g‘risida risola”) asarini yozgan. Risola hajm jihatidan kichik bo‘lib, vaqtning mazmun va mohiyatini Qur‘on oyatlari va hadislariga suyanib, tasavvufiy asoslagan.

Ibn Arabiy so‘fiy vaqtni Haqqa etkazuvchi vosita va oraliq deb aytadi. O‘ziga kashf bo‘lgan vaqtning ma‘nosini shunday ifodalagan:

وقد كشف لنا الحق في الوقت أمراً جليلاً، إن الوقت واحد المشهد، لكنه يختلف باختلاف المقامات، والمقصود ها هنا ذكر وقت المرید الصادق فهو برزخ بين الجلال والجمال

*Mazmuni:* “Bizga kashf bo‘ldiki, vaqt bu juda ulug‘ ishlardan biri. Vaqt bu bir “mashhad”, ya‘ni, ko‘rinishdir, biroq maqomlar o‘zgargani sari u ham o‘zgarib boraveradi. Bu joyda esa maqsad muridning vaqti to‘g‘risida bo‘lib, bu vaqt Allohning jaloli va jamoli orasidagi bir barzax, ya‘ni oraliqdir”<sup>30</sup>.

Mutasavvif “Vaqt bu bir mashhaddir” ya‘ni, vaqt sanoqsiz darajada mavjuddir deb, “biroq, maqomlar o‘zgargani sari u ham o‘zgarib boraveradi”<sup>31</sup>, - degan xulosaga keladi. Olamdagi har qanday jarayon harakat tufayli sodir bo‘ladi. Har qanday o‘zgarish – harakatdir. O‘zgarishlar nafaqat moddiy ob‘yektlarga, balki ma‘naviy, g‘oyaviy ob‘yektlarga ham xosdir. Har qanday (moddiy va g‘oyaviy) ob‘yektning mavjudligi undagi harakat va o‘zgarishlar tufayli namoyon bo‘ladi. Shu sababli harakat borliqning asosiy mavjudlik usulidir. Inson kamolotga erishishda o‘zining darajasini oshirgani sayin vaqtni anglashi ham o‘zgarib boradi. Ibn Arabiy “... maqsad muridning vaqti to‘g‘risida”, fikr yuritib, har xil begona g‘oyalarga chalg‘imaslikka chaqiradi.

Ibn Arabiy vaqtni kun va tunga, falaklarning harakatiga bog‘lab tushuntiradi. Mutasavvif: “Ma‘lum bo‘lsinki, kecha va kunduz, kun, oy va yil kabi tushunchalar soatlar deb ataluvchi vaqtlardan iboratdir. Aslida bularning bari aynan mavjud emas, ular nisbiy mansublik va izofalardir”<sup>32</sup>, - deb izohlaydi. Ibn Arabiy ta‘limotida o‘tmish va kelajak ham zamondagi onlar hukmi ostida bo‘ladi.

Mutasavvif borliq va yo‘qlik masalasini tasavvufiy-irfoniy nuqtai nazaridan tahlil etib, borliqda Allohdan boshqa narsalar mavjud emasligi, har qanday borliq Undan ekanligi, shuning bilan birga Uning o‘zi hech bir narsada bo‘lmasligi hamda Uni faqat Uning o‘zi anglashligini keltiradi. Ibn Arabiyning nazariyasi

الرسالة الوجودية. محي الدين محمد بن علي بن محمد ابن عربي. بيروت: دار الكتب العلمية. 2004. ص-38

ابن عربي. رسالة الوقت و الآن. بيروت: دار الكتب العلمية. 2004. ص-225.

ابن عربي. رسالة الوقت و الآن. بيروت: دار الكتب العلمية. 2004. ص-225.

كتاب الإسفار عن نتائج الأسفار، ضمن رسائل ابن عربي، وضع حواشيه محمد عبد الكريم النمري، دار الكتب العلمية، بيروت، لبنان، 2007م

Imom Rabboniygacha bo'lgan salkam besh asrlik muddatda islom olamida katta shov-shuvli ta'limot sifatida saqlandi. Unga javob tariqasida juda ko'p diniy-tasavvufiy maktablar turli g'oyalarni o'rtaga tashlashgan bo'lsa-da, asosan, naqshbandiya tariqati o'zining "vahdatush shuhud" nazariyasi bilan bunga munosib javob qaytarib, bu ta'limotning tasavvufiy g'oyalar rivojidadagi o'rnini ko'rsatib berdi.

Dissertatsiyaning uchinchi "**Ibn Arabiy ijtimoiy qarashlarining tasavvufiy talqini**" deb nomlangan bobida o'rta asrlarda keng tarqalgan falsafiy, tasavvufiy-irfoniy, rasional va irrasional ilmlar va ularga Ibn Arabiyning munosabati falsafiy tahlil qilingan. Mutasavvif ma'rifatining rivoji to'g'risidagi ma'lumotlarida so'fiylikning mohiyati, haqiqat, borliq va inson kabi tushunchalarni turli hikmatlar asosida tahlil qilib, Ibn Arabiy "Hukm hikmatning natijasidir. Ilm esa ma'rifatning natijasidir. Kimda hikmat bo'lmasa, unda hukm yo'q va kimda ma'rifat bo'lmasa, unda ilm yo'q"<sup>33</sup>, - degan fikrlari sharhlangan.

Mutasavvif ba'zida diniy-irfoniy va falsafiy muammolarni echishda o'zining shaxsiy qarashlari tizimidan kelib chiqib yondashadi. Bunday nazariyada mutasavvif tahliliy echimni ikki xil usulda amalga oshirgan:

- o'zidan oldingi o'tgan faqihlar, faylasuflar, mutakallimlar va mutasavvif-so'fiylar merosini diniy-irfoniy tahlil qilib, muammoga munosabat bildirish orqali;
- shaxsiy-hissiy va holiy xulosalar chiqarish orqali.

Ibn Arabiy fiqh ilmiga munosabatini quyidagicha tahlil qiladi: "Din ahli o'zlari e'tiqod qilayotganlari nimalarga asoslanishini bilishlari uchun din usullarini tushuntirish aql va naqlning tadbiri orqali amalga oshiriladi"<sup>34</sup>.

Mutasavvif faqihlarning darajasiga baho berib, ularning yuqori darajasini "ijtihad"<sup>35</sup> deb ataydi. Bu darajaga etgan faqihlar echimi bo'lmagan har qanday diniy masalaning hukmini boshqalar yordamisiz o'zlari chiqaradilar. Hukmni zohiriy ilm orqali emas botiniy ilhom ilmi orqali chiqaradilar. So'fiylar ham shu ilm bilan mashg'ul bo'ladilar. Shu sababli mutasavvif mujtahidlar va faqihlarga ularning hukm chiqarish uslubi so'fiylar bilan har xil deb e'tiroz bildirmaslikka chaqiradi. Ibn Arabiy fiqhning uch katta tarmog'i "Qur'on" "Sunna" va "Ijmo'"ni e'tirof etib, "Qiyos"ni rad qiladi.

Dissertant Ibn Arabiyning falsafiy ilmlarni tahlil qilganligini asoslab bergan. "Falsafa maxsus ilm, u kimga ato qilingan bo'lsa, u donishmand – oqildir. Bu ilm mufassal (keng qamrovli) va amaliydir. Donishmand o'z holatida barcha holatlar va barcha narsalarni to'g'ri qabul qiladi. Bu faqat malomatiylar tabaqasida uchraydi"<sup>36</sup>. Ibn Arabiy falsafiy ilmga so'fiylik nuqtai nazaridan javob berib, uni tom ma'noda malomatiya ta'limotidagi so'fiylarda uchratish mumkinligini ta'kidlab o'tadi.

Mutasavvif falsafani ikki qismga – nazariy va amaliy falsafaga bo'lgan. Ibn Arabiy fikricha, nazariy falsafa o'z xulosalarini ratsional uslubda, ya'ni aqliy tarzda chiqaradi. Bu uslublarni amalda qo'llash natijalari ijobiy yoki salbiy bo'lishi

<sup>33</sup> ميثم الجنابي. الغزالي: التألف اللاهوتي الفلسفة الصوفية. ج 1، دمشق: دار المدي. 1998. 267-ص.

<sup>34</sup> السيد الميلاني. الامامية في الكتب الكلامية (السعودية): الجامع الإسلامية، 19-ص.

<sup>35</sup> ابن عربي. رسائل ابن عربي. الانتشار العربي، 2002. ج 2. 182-ص.

<sup>36</sup> ابن عربي. الفتوحات المكية ببيروت: دار الكتب العلمية، 1985. ج 4. 266-ص.

mumkin. Amaliy falsafa esa bu soʻfiylarning soʻfiyona malakalari asosida shakllangan boʻlib, uning asosiysi “ilmi tajalliyot” (“Insonda Alloh nurining jilva qilishi”) boʻlib hisoblanadi. Mutasavvif fikricha, “Bunga inson oʻz xatti-harakatlari bilan erisha olmaydi. U Haqning bandaga inoyati boʻlib, soʻfiylikda u “uluhiy” (ألوهي) deb aytiladi. Uning barcha xatti-harakatlari va soʻzlari manbai Haqdir. U xatolardan xoli boʻlgan paygʻambar yoki valiydir. Paygʻambar va valiylar haqiqiy donishmandlar, faylasuflar esa oddiy donishmandlardir. Biroq, ular haqiqiy donishmandlarga yaqin boʻlib, boshqalardan koʻra Xudoni yaxshiroq taniydilar”<sup>37</sup>.

Tadqiqotda Ibn Arabiy falsafani kalom ilmidan yuqori qoʻyganligi taʼkidlanadi. Bunga sabab qilib, falsafaning oʻz tarkibiga diniy, tabiiy ilmlarni, matematika va mantiqni qoʻshganligini koʻrsatadi. Mutasavvif: “Kalomchi bu ilmlarni bilmaydi. U bor yoʻgʻi bir mutakallim. Faylasuf esa shunday kishiki, unda diniy, tabiiy, matematik va mantiq ilmlari mujassamlashgan. Bu toʻrt ilmdan tashqari boshqa ilm yoʻq”<sup>38</sup>, - deb taʼkidlaydi.

Mutasavvif falsafani ulugʻlab, nazariy va aqliy fanlarni oʻzida mujassamlashtirgan fan sifatida koʻrsatgan boʻlsa-da, uni tanqid ham qiladi. Ibn Arabiyning falsafa va faylasuflarga tanqidiy munosabati “Ruʼyatulloh” (“Allohni koʻrish” رؤية الله) va “Zotulloh” (“Ilohning zoti” ذات الله) kabi ontologik va gnoseologik masalalarda kelishmasligida koʻzga tashlanadi. Mutasavvif borliq oʻz-oʻzidan koʻrinuvchi u orqali Xudoni koʻrish mumkin deb, “Ruʼyatulloh” toʻgʻrisidagi nazariyasini quyidagicha asoslaydi: “Borliq bu xayoldir. Sen koʻrayotgan barcha narsa va ular oʻrtasidagi farqlar his mahsuli (“mahsusot” المحسوسات) va xayolot (“taxayyulot” التخيلات)dir. Buni faylasuf ham “ashobu adillati-l-uqul” (“aqliy dalillarga ishonuvchilar” أصحاب أدلة العقول) – ratsionalist va zohiriylar inkor etadilar. Biz esa buni Haq deb ataymiz”<sup>39</sup>.

Ibn Arabiy faylasuflarga baho berishda shunday tanqidiy usulda yondashadiki, bunda faylasuflarni ayrim muammolarni hal qilishda qobiliyatsiz, ular borliqdagi umumiy jumboqlarnigina echishga qodir deydi. Mutasavvif “Donishmand kishi faylasufdir. Biroq, uning donishmandligi yalangʻochdir”<sup>40</sup>, - degan xulosaga kelgan.

Mutasavvif mutakallimlar qoʻllaydigan mantiqiy ilm aqidaviy masalalarni toʻla ochib berishga qodir emasligini tushuntirib, bu usulni “Ilmul ilohiy” (“metafizika” علم الإلهي) da qoʻllash mumkinligini taʼkidlagan.

Ibn Arabiy soʻfiylikni yolgʻon, ratsional va haqiqiyga boʻlib, bularning xususiyatlarini quyidagicha ochib bergan:

1. Tizimli soʻfiylik borliq toʻgʻrisidagi muammoli savollarga javob bergan boʻlishi shart.

2. Maʼrifat va irfonning mazmun mohiyatini oʻzida toʻla namoyon qilishi lozim.

3. Ruh va ruhiy maqomlar, ularni bosib oʻtish yoʻllari aniq konsepsiyasiga ega boʻlishi kerak.

<sup>37</sup> ابن عربي. الفتوحات المكية ببيروت: دار الكتب العلمية، 1985. ج: 4. 307-ص

<sup>38</sup> ابن عربي. الفتوحات المكية ببيروت: دار الكتب العلمية، 1985. ج: 4. 230-ص.

<sup>39</sup> ابن عربي. الفتوحات المكية ببيروت: دار الكتب العلمية، 1985. ج: 4. 508-ص

<sup>40</sup> ابن عربي. الفتوحات المكية ببيروت: دار الكتب العلمية، 1985. ج: 4. 442-ص

Tadqiqot ishida mutasavvif ta'limotida ishora va ta'vil masalasi o'rganilib, o'ziga xos yondashuv va tushuntirish uslublari tadqiq qilingan. Ibn Arabiy zohirni botinning borligiga ishora qiluvchi obraz, ya'ni qiyofa deb tushuntiradi<sup>41</sup>. Qur'onni butun mavjudot va inson bilan yonma-yon yuruvchi hamda zohiriy ko'rinishi harflar, tovushlarda namoyon bo'luvchi, botiniy jihati esa, Muhammad payg'ambar qalbida jilvalanuvchi borliq deb tushuntiradi. Ibn Arabiy Qur'onning qadim yoki muhdas (yangidan paydo bo'lgan)ligi masalasini tahlil qiladi. Mutasavvif fikricha, Qur'onning oyatlari qadim bo'lib, oyatning Haqni anglatish ma'nosi muhdas, ya'ni yangidir.

Ibn Arabiy Qur'on tafsirini ta'vil qilishdan farq qilishini aytadi. Tafsir Qur'on oyatlarining mazmuni, tarixi, nozil bo'lish sabablari va ma'nolarini ochib bersa, ta'vil, oyatlarning botiniy ma'nolarini ilohiy kashf orqali har bir tariqat maktabining o'ziga xos yo'lga asoslangan holda ochib berish va tushuntirishdir. Mutasavvif fikricha, ta'vil ilmini egallash juda qiyin bo'lib, mutasavviflargagina munosib bo'lgan ilm hisoblanadi. Tafsir ilmini esa, hamma uchun mos va uni tushunish mumkin bo'lgan ilm deb baholab, zohiriy va botin ilmiga qo'shimcha tarzda "hadd" ( الحد chegara) va "matla" ( المطلع boshlanish joyi) tushunchalarini kiritgan. "Hadd"ning ma'nosi bir narsaning ikkinchisidan farqlanadigan jihatini anglatadi, "matla"ning ma'nosi o'sha narsaning mohiyatini anglatadi.

Dissertant Ibn Arabiy aqlga tayangan ta'vilni tanqid qilib, bu har qanday nazariy o'lchamlardan tashqarida deb sharhlaganini qayd etadi. Uni biror ilmiy dunyoqarash bilan tushuntirish va ilmiy qoliplarga solish mumkin emas. U zohiriylikka yaqin tursada, o'z-o'zicha bir fandır. Ibn Arabiy ta'vilni idrok va ibodatning nuqsonli darajalari deb xulosa chiqaradi. Mutasavvif idrok darajalarini to'rtta toifaga ta'alluqli qilib ko'rsatadi: *rasullar, nabiylar, valiylar va mo'minlar*. Bularning o'ziga xos farqli jihatlari mavjud. Yuqori toifaga rasullar (payg'ambarlar) nabiylar (payg'ambarlar, biroq ularga ilohiy kitob nozil bo'lmagan) va valiylar (Xudoning do'stlari, avliyo) kirsar, quyi toifaga Allohga ishonuvchi oddiy insonlar – mo'minlar kiradi. Ibn Arabiy fikricha, toifa ahllari Qur'on oyatlarining ma'nolarini tushunishlarida o'z darajalariga muvofiq yuqorilab boradilar. Toifalarning ibodatlarini shaklan bir xil bo'lsa ham ularni idrok etib, ijro qilinish darajalarida farqlanadi. Qur'onning ular nazdida mavqe'i va ma'nosi ham turlicha bo'lib, nisbiylik kasb etadi. Qur'on matnining ma'nolarini to'liq va tom ma'noda o'zlashtirib bo'lmaydi. Uni tilda ifodalab, aqlda tasavvur qilib bo'lmaydi<sup>42</sup>.

Ibn Arabiy Qur'on oyatlarini ta'vil qilishda ularni har tomonlama o'rganish tarafdori bo'lgan. Mutasavvif Qur'onning "bo'l" (كن), ya'ni Alloh borliqni yaratishda "bo'l" deb amr qilganda borliq vujudga kelganligi to'g'risidagi oyatini ta'vil qilib, Yaratuvchining so'zini tushunishda to'rt jihatga e'tibor qaratish lozimligini aytadi. Birgina "bo'l" ni kim aytdi va kimga aytdi, "bo'l"dan kim bo'lishi kerak va kim qabul qiladi. Qur'onning bu oyati bir qancha irfoniy ma'nolarga ega. Ibn Arabiy bu ma'nolarni *kasrat* (الكثرة) va *vahdat*

ابن عربي. الفتوحات المكية بيروت: دار الكتب العلمية، 1985. ج: 4. 409-ص 41

ص. 11.4- ج: 1985. دار الكتب العلمية، بيروت المكية الفتحا. عربي ابن 42

(birlik الوحدة) va *muassir* (ta'sir etuvchi المؤثر) va *mutaassir* (ta'sirlanuvchi المتأثر), *ifsho* (oshkoralik الافشاء) va *ixfo* (maxfiylik الاخفاء), *avval* (birinchi الأول) va *oxir* (so'nggi الآخر), *zohir* (namoyon الظاهر) va *botin* (yashirin الباطن) kabi Allohning sifatlarini anglatadi deb hisoblaydi<sup>43</sup>. Bu ilmni bilish va idrok etish qalbning zohir va botinni anglashiga olib keladi.

Ibn Arabiy inson ta'vil qilish uchun avvalo, pardani olib tashlab, o'zini o'zi hamda Haqni anglashi orqali bo'ladi, degan g'oyani ilgari surgan. Inson o'zini o'zi angalay olsa, Haqdan uni to'sib turgan moddiy va ma'naviy to'siqlar yo'qolib, Haqiqat unga namoyon bo'ladi. Insonning o'zini-o'zi anglashi orqali Haqni anglashi ta'vil usullaridan biridir.

Ibn Arabiy Xudoning "Kun" ("Bo'l" كن) amrini ta'vil qilar ekan, bu so'zni yasovchi ikki undosh kof (ك) va nun (ن) harflarini Odamni yaratishdagi Allohning "ikki qo'li" sifatida ta'riflaydi. (Baqara: 117 oyat). Bu ikki qo'l ishorasi bilan jasad tarkib topadi<sup>44</sup>. Mutasavvif insonning o'zgacha tarzda yaratilganligini tasvirlagan.

Tadqiqotchi fikricha, Ibn Arabiyning ta'vil usuli payg'ambar va so'fiylarga berilgan ilohiy mo'jiza va ilhomlarning tabiatini aniqlashga qaratilgan. Mutasavvif "(Ey, Muhammad), Alloh sizning avval o'tgan gunohingizni va keyingilarini mag'firat etishi, ne'matini batamom qilishi va sizni to'g'ri yo'lga boshlashi uchun sizga ravshan fathni ato etdik"<sup>45</sup> (Fath: 1,2-oyatlar.) oyatini keltiradi. Mutasavvif bu oyatni ta'vil qilib, Muhammad payg'ambar nuri Odam Ato va boshqa payg'ambarlar ruhlaridan avval mavjud bo'lganligini aytib: "Muhammad payg'ambar hurmatidan Odam Atodan to'qiyomatgacha o'tadigan odamlar vujudga keladigan bo'ldi. Uning payg'ambarligi hali Odam yaratilmasidan (suv va tuproq orasida bo'lgan vaqtda) aniq edi"<sup>46</sup>, - deb yozadi.

Ibn Arabiy oyatlarni falsafiy jihatdan ta'vil qilish bilan birga tasavvufiy nuqtai-nazardan ham ta'vil qiladi. Mutasavvif "Alloh sizlarni O'zidan ogohlantiradi" (Oli Imron: 28) oyatini keltirib, Alloh zotining mohiyatini anglashdan qaytaradi. Ilohiy "Men"lik moddiylikda aks etmaydi, hissiyot va tasavvur xayolotgina uning mavjudligiga ishora qiladi. Shuning uchun Xudoning zoti mohiyati to'g'risida bilishning imkoni yo'q.

Ibn Arabiy ilm va ma'rifatning bir-biri bilan uzviy aloqada ekanligini ta'kidlaydi. Mutasavvif ilm ma'rifatga etaklaydi deb hisoblaydi. Bu qoida taqdir (القدر)ni ilm bilan o'rganib bo'lmaslikda namoyon bo'ladi. Ilm egallash ilohiy taqdir. Yaratuvchining istak-xohishi orqali insonning ichki iste'dodiga yarashasi beriladi. Mutasavvif taqdirning o'zgarmasligiga "Mening dargohimda gap o'zgarmasdir" (Qof: 29) degan oyatni asos sifatida keltirib, "Taqdirda adolatsizlik bo'lmaydi, inson hayotida nimaiki sodir bo'lsa, ichki dunyosining aksi bo'ladi. Xudo insonning o'z ichki dunyosini o'ziga taqdir qilib belgilagan"<sup>47</sup>, - deydi.

Ibn Arabiy "shohid" ma'nosini ta'vil qilish bilan birga uning o'zakdoshi "shahid"ning ham ilohiy ma'nosini tahlil qiladi. Islom dinida shahidlik maqomiga

43 ص. 12-4 ج. 1985. العلمانية، تبالك دار: بيروت المملكة العربية المتحدة. ج. 12-4 ج. 1985.

44 ابن عربي. الفتوحات المكية بيروت: دار الكتب العلمية، 1985. ج. 269.3-ص.

45 Qarang: Шайх Алоуддин Мансур. Куръони Азим Мухтасар Тафсири 1-2. – Тошкент: "SHARQ", 2020.

46 ابن عربي. الفتوحات المكية بيروت: دار الكتب العلمية، 1985. ج. 1. 135-ص.

47 ابن عربي. الفتوحات المكية بيروت: دار الكتب العلمية، 1985. ج. 1. 346-ص.

islom dinini himoya qilib halok bo'lsa, shahid deyilib, gunohlardan forig' holda jannatga kiradi deb e'tiqod qilinadi. Shu sababli shahidlik darajasini topish musulmonlar nazdida juda yuqori maqomga erishish deb e'tiqod qilingan. Ibn Arabiy Qur'ondagi "Kim Allohga va payg'ambarga itoat etsa, bas, ana o'shalar Alloh in'omlariga sazovor bo'lgan nabiyilar, siddiqlar, shahidlar va solihlar bilan birga bo'lurlar. Ular esa eng yaxshi hamrohlardir. (Niso: 69-oyat.) oyatida aytib o'tilgan "shahid"lar Haqni tanituvchi ilohiy ma'rifatning birinchi darajasidadir deb aytadi<sup>48</sup>. Bunda shahid Haqqa bo'lgan kuchli iymoni sababdan o'zlikdan kechib Unga yaqinlikka erishadi.

Ibn Arabiy fikricha, sinovlarga sabr qilishda insonning nasl-nasabning ahamiyati katta: "Uning ishoralariga ergashmoqchi bo'lgan kishi avvalambor, o'zining nasabini bilmog'i lozim. Nasabni bilish Haq bilan aloqada juda muhim. Biz nasabimizni bilmasak, Uni bilmaymiz"<sup>49</sup>.

Dissertant qayd etishicha, Ibn Arabiy nasabni ikki turga bo'ladi. "Diniy nasab" insonga o'zining Haqqa bo'lgan botiniy intilishlari mahsuli hisoblanadi. "Vujudiy nasab" esa insonga qon orqali o'tadi.

Mutasavvif majoz bilan Qur'on oyatlari hamda borliqning zohiriy mazmun va ko'rinishlarida yotgan ilohiy sirlarga ishora qilib, insonlarning tafakkurini charxlashni maqsad qiladi. Xuddi shu nuqtada zohir va botin ilmi to'g'risidagi g'oyalar vujudga keladi. Irfon ilmi ham zohiran, ham botinan ilohiy axloqni mujassam etadi. Ibn Arabiyning "Hukm hikmatning natijasidir. Ilm esa ma'rifatning natijasidir. Kimda hikmat bo'lmasa, unda hukm yo'q va kimda ma'rifat bo'lmasa, unda ilm yo'q" kabi g'oyalari Yangi O'zbekistonda Uchinchi Renessans poydevorini barpo etishda hamda ma'rifatli jamiyat qurish va yuksak ma'naviyatli shaxslarni tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Dissertatsiyaning to'rtinchi bobi "**Ibn Arabiy ta'limotida ijtimoiy-axloqiy masalalar**" deb nomlangan. Bu bobda Ibn Arabiyning jamiyat taraqqiyotida axloq masalasining o'rniga oid qarashlari, iroda va harakat axloqni shakllantiruvchi vositalar ekanligiga doir g'oyalar tadqiq qilingan.

Ibn Arabiy irodani harakat bilan bog'laydi. Harakat butun mavjudotning yashash usuli. Mavjud bo'lmoq, eng avvalo, harakatlanmoq va o'zgarmoq demakdir. Shuning uchun harakat tushunchasi butun borliq va olamda, jumladan, kishilik jamiyatida ham yuz berayotgan barcha o'zgarish va jarayonlarni o'z ichiga oladi.

Mutasavvif fikriga ko'ra, inson ikki xil harakatga ega: al-Harakatu-l-ixtiyoriyya (ixtiyoriy harakat الحركة الاختيارية), al-Harakatu-l-iztiroriyya (ehtiyojiy harakat الحركة الاضطرارية). Ixtiyoriy harakat insonga biror bosim o'tkazilmasdan o'z xohishiga ko'ra harakat yo'lini tanlashidir. Ehtiyojiy harakat esa ixtiyoriy harakatning aksi bo'lib, bunga inson qo'rquv, ochlik va shunga o'xshash holatlarning bosimi ta'sirida harakat yo'lini tanlashidir. Bunday harakatni Ibn Arabiy yana boshqa nom bilan al-harakatu-l-xarijiyya (instinkt الحركة الخارجية) deb ham nomlaydi<sup>50</sup>.

<sup>48</sup> ابن عربي. الفتوحات المكية بيروت: دار الكتب العلمية، 1985. ج: 1. 27-ص

<sup>49</sup> ابن عربي. الفتوحات المكية بيروت: دار الكتب العلمية، 1985. ج: 3. 514-ص.

<sup>50</sup> ابن عربي. الفتوحات المكية بيروت: دار الكتب العلمية، 1985. ج: 1. 514-ص

Dissertatsiyada Ibn Arabiy irodani uch turga: irodatu-t-tamanniy (xohish irodasi إرادة التمني), irodatu-t-tab' (tab' irodasi إرادة الطبع), irodatu-l-Haq (Haq irodasi إرادة الحق)ga ajratganligi ta'kidlangan. Ibn Arabiy falsafasidagi "iroda" konsepsiyasi tanlov tushunchasi asosiga qurilgan. Insondagi bu ixtiyor erkinligi Haq bergan imkoniyat va tayyorgarlikka bog'liq. Ixtiyor erkinligi har bir shaxsning individual erki, irodaviy mayli, xohish-istagi va ular orqali namoyon bo'ladigan erkin faoliyati hisoblanadi.

Tadqiqotchi mutasavvif do'zax bo'yicha o'ziga xos tamoyil ishlab chiqqanligini asoslab bergan. Ibn Arabiy ilgari surgan "shumul ur-rahmat" ("Allohning rahm-shafqati ustunligi") "adamu sarmadiyyatil azab" ("do'zax azobining abadiy emasligi") to'g'risidagi g'oyalarni "Fususul hikam" ("Hikmatlar shodalari") asarida keltirib, Qur'on oyatlarining tafsiri asosida tahlil etgan. Mutasavvif rahm-shafqatni islomning bosh qonuni deb aytib, uning asosi sifatida Qur'onning ilk oyati, ya'ni "Bismillahir rahmonir rahim" ("Mehribon va rahimli Allohning nomi bilan boshlayman") ham Allohning rahmliligi va mehribonligi to'g'risida ekanligini aytadi. Demak, do'zax bilan qo'rqitish islomning bosh qonuni emas. Rahmlilik Haqning o'zi bilan azaldan mavjud. Shu sababli uning rahmati ustundir. Ibn Arabiyning ta'kidlashicha, Qiyomat kunida kimki Allohning yagonaligiga iymon keltirgan bo'lsa, ularning barchasiga jannat eshiklari ochiq bo'ladi. Bu hukmni u yagona Xudoga iymon keltirgan har qanday e'tiqod va din vakillariga tegishli qiladi<sup>51</sup>.

Mutasavvif fikricha, "ma'siyat" (المعصية) ("gunoh") insonning fitratiga xos narsa emas. Xudoning rahmati har qanday gunoh, g'azab va do'zax azoblaridan oldin bor bo'lgani kabi, insonning fitrati ham uning gunohidan oldin paydo bo'lgan. Demak insonni faqat rahmat va mag'firat kutmoqda. Ibn Arabiy: "U (ya'ni Haq. A.B.) faqatgina o'ziga ibodat qilishlarini istadi, va bu ibodat turli darajalarda bo'ldi. Har bir darajaning o'ziga xos ibodat shakli bor. Eng ulug' va eng oliy ibodat bu Uni sevishlikdir"<sup>52</sup>, degan. Bu joydagi sevishlikdan maqsad ibodat qiluvchining ibodat qilayotganiga bo'lgan ichki istak va intilishdir.

Dissertant so'fiy shariat ahkomlari va ibodat talablarini chuqurroq anglab borishi bilan ma'lum bir maqomlarga o'tib borishini asoslagan va Ibn Arabiy bu maqomlarni to'rtga bo'lganligini qayd etgan:

1. Harakatdan harakatga o'tish (من فعل إلي فعل) bunda hech qanday to'siq va shubhalar bo'lmasligi kerak.

2. Tark qilishdan tark qilishga o'tish. (من ترك إلي ترك) bunda muayyan to'siqlar vujudga kelishi kerak.

3. Harakatdan tark qilishga o'tish (من فعل إلي ترك) bunda to'siqlarga shubhalar aralashishi kerak.

4. Tark qilishdan harakatga o'tish (من ترك إلي فعل) bunda har qanday to'siq va shubhalar yo'qoladi.

Dissertatsiyada insonning ma'naviy va jismoniy kamoloti masalasi, uning yaralishi, mohiyati, jamiyatda tutgan o'rni masalasi Ibn Arabiy g'oyalari asosida

<sup>51</sup> ابن عربي. الفتوحات المكية بيروت: دار الكتب العلمية، 1985. ج:3، 277-ص.

<sup>52</sup> ابن عربي. فصوص الحكم. بيروت: دار الكتاب العربي، 1946. 371-372-ص.

ijtimoiy-falsafiy tahlil qilingan. Komil inson tushunchasi birinchi marta Muhyiddin Ibn Arabiy tomonidan ilmiy muomalaga kiritilganligi dalillab berilgan. Mutasavvif fikricha, “komil inson – bu aqli avval yoki nafi avval, aqli kull”<sup>53</sup> tushunchalari bilan ma’nodoshdir. Chunki Tangri taolo ilohiy nurdan ilk marta Aqli avvalni yaratdi va uning suratu shaklini komil inson qiyofasida zuhur etdi.

Ibn Arabiy insonni tahlil qilib quyidagi fikrni keltiradi:

إعلم أن الإنسان من بين سائر الحيوان ذو فكر و تمييز و هو أبدا يحب من الأمور أفضلها و من المراتب أشرفها و من المقتنيات أنفسها

*Mazmuni:* “Bilginki, inson boshqa jonzotlar orasida aql va farosati bilan farqlanadi. U agar farosatidan ayrilmagan bo’lsa va maqsadiga erishishda hoyu havasiga berilmasa, hamisha ishlarning afzalrog’ini, martabalarining oliyrog’ini, buyumlarning nafisrog’ini sevadi”<sup>54</sup>. Ibn Arabiy ta’limotida inson o’zi uchun qiladigan eng to’g’ri ishi bu o’zining komil bo’lish g’oyasiga etishda to’xtamasligi, ishni oxiriga etkazmasdan tinchimasligi kerak.

Ibn Arabiy “Tahzibul axloq” risolasini quyidagi sakkizta faslga bo’ladi:

1. Yomon xulqlar.
2. Yaxshi xulqlar.
3. Shahvoniy nafs.
4. G’azabiy nafs.
5. Notiq nafs.
6. Axloqning turlari va qismlari.
7. Xulqlarni o’zlashtirish yo’llari.
8. O’zida barcha yaxshi xulqlarni jamlagan komil insonning sifatleri.

Ibn Arabiy ta’limotiga ko’ra tabiatida yaxshi xulqlar jibilliy, ya’ni zotida qorishiq bo’lgan insonlar kamchilik bo’lib, ularning tabiatida yaxshilik boshqa yaxshi xulq egalaridan ko’ra ustun bo’ladi.

و كذلك في الأخلاق المحمودة قد تختلف الناس و يتفاضلون إلا أن المجبولين علي الأخلاق الجميلة قليلون جدا و أما المجبولون علي الأخلاق السيئة فأكثر الناس لأن الغالب علي طبيعة الإنسان الشر

Tabiatida yomon xulqlar ham jibilliy bo’lganlar bor va ular ko’pchilikni tashkil qiladi. Ularning tabiatida yomonlik ustun bo’ladi<sup>55</sup>. Agar inson fikr, farosat, hayo va ibo kabi xulqlarsiz faqat tabiatiga ergashsa, unda hayvonlik xulqi g’olib bo’ladi. Negaki, inson hayvonlardan tafakkur qilishi va farosati bilan ajralib turadi. Inson yaxshi xulqlardan foydalanmasa, hayvonlarga sherik bo’lib qoladi. Unda shahvat ustunlik qilib, hayo yo’qoladi, sakinat o’rniga g’azab keladi, hirsu hasad va yomonlik undan ayrilmaydi.

Ibn Arabiy xulqlarning har xil bo’lishining sababi sifatida inson nafsini ko’rsatadi: فأما العلة الموجبة لإختلاف الأخلاق و هي النفس فللنفس ثلاث قوي و تسمى أيضا نفوسا و هي النفس الشهوانية و النفس الغضبية و النفس الناطقة و جميع الأخلاق تصدر عن هذه القوي فمنها ما يختص بإحداهن و منها ما يشترك فيه قوتان و منها ما يشترك فيه القوي الثلاث

*Mazmuni:* “Insonlarning xulqi har xil bo’lishiga nafs sababchidir. Nafs uch xil quvvatga ega bo’ladi: shahvoniy nafs, g’azabiy nafs va notiq nafs. Barcha xulqlar

<sup>53</sup> Комилов Н. Тасаввуф. Биринчи китоб. -Тошкент: Ёзувчи, 1996. – Б.145.

<sup>54</sup> ابن عربي. تهذيب الأخلاق. كويت: عيم الفكر، 1986. 9-ص.

<sup>55</sup> ابن عربي. تهذيب الأخلاق. كويت: عيم الفكر، 1986. 13-ص.

ana shu uch nafsdan sodir bo‘ladi. Bu nafslarning ba‘zisi yakka holda, ba‘zisi ikkitasini birlashtirib, ba‘zisi uchovini ham birlashtirib keladi”<sup>56</sup>.

Ibn Arabiy nafs bilan kurashishda uning “kasalliklari” (الأمراض النفسية)ni davolash lozimligini aytib ularni quyidagi uch guruhga ajratgan<sup>57</sup>:

1. “al-amrozu-l-aqvol” (الأمراض الأقوال “So‘z kasalligi”)
2. “al-amrozu-l-af‘ol” (الأمراض الأفعال “Fe‘l kasalligi”)
3. “al-amrozu-l-ahvol” (الأمراض الأحوال “Hol kasalligi”)

Ibn Arabiy so‘z kasalliklariga fitna, g‘iybat va boshqalarni sanab o‘tadi. Fe‘l kasalligi (yoki xatti-harakat)ga odamlar nazariga tushish va maqtoov eshitish kabi biror dunyoviy manfaatni ko‘zlab biror harakatni sodir etishni nazarda tutadi. Hol kasalliklari sirasiga soxta obro‘ olish maqsadida mansabdorlarga yaqin bo‘lishga intilish, ularga xushomad qilish, shon-shuhratga intilish kabilarni kiritgan.

